

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

Kimyo kafedrası

**Oziq-ovqat texnologiyasi va Biotexnologiya
yo‘nalishi talabalari uchun**

ANALITIK KIMYO

Fanidan

Ma‘ruzalar matni

Guliston- 2022

Kirish

Analitik kimyo fanidan ma'vzu matnlarini ushbu qismida: analitik kimyo fani va uning uslublari, vazifalari hozirgi vaqtda biologik jarayonlarning borishida tabiatni muxofaza qilishda analitik kimyo fanining roli modda va moddalar aralashmasining sifat va miqdoriy tarkibini aniqlash, analitik reaksiyalar va ularni o'tkazish usullari kationlar va anionlarni analitik guruxlarga bo'linishi, gurux reagentlari, miqdoriy analiz usullari, tortma analiz, xajmiy analiz, titrimetrik analiz va uning asosiy qoidalari indikatorlar nazariyasi, oksidlanish qaytarilish reaksiyalariga asoslangan titrimetrik analiz metodlari, fizikaviy va fizik – kimyoviy usullar tavsifi va boshqa mavzular yoritilgandir.

Mavzuni yoritish bo'yicha savol va topshiriqlar ishlab Chiqildi. Ma'vzu matnini yoritishda zamon talabiga javob beruvchi MDX va Chet-el adabiyotlaridan o'rinli foydalanildi.

Ma'ruzalar matni Kimyo kafedrasining yig'ilishida 28.08.2022- y muhokama qilingan va №1 bayonnoma bilan tasdiqlangan.

Kafedra mudiri:

prof. U. Abduraxmanova

Ma'ruzalar matni Tabiiy fanlar fakultetining uslubiy kengashida (№1 bayonnoma 30.08.2022- y) tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

prof. X. Abduraximov, M. Mamatqulova

Taqrizchi:

prof. R. Ismailov

Nazariy qism

1- mavzu

Mavzu: ANALITIK KIMYO FANI PREDMETI, VAZIFALARI, AXAMIYATI.

SIFAT ANALIZ METODLARI

1. Analitik kimyo fani predmeti, vazifalari, axamiyati.
2. Sifat analiz metodlari.
3. Sifat analiz sistemalari.
4. Kationlar analizining ammiakli - fosforli klassifikatsiyasi.
5. Anionlarning analitik gruppalariga bo'linishi.
6. Analitik reaksiyalarning sezgirligi, o'ziga xosligi va reaksiya olib boriladigan muxitning roli.
7. Mustaxkamlash va nazorat uchun savollar.

TAYANCH IBORALAR

Analitik kimyo, Analiz, sifat, miqdoriy, topilish minimumi, selektiv reaksiyalar, analitik reaksiya, anionlar, kationlar.

Muammoli savol.

1. Analitik kimyo fanining asosiy vazifasi nimalardan iborat.
2. Sifat va miqdoriy analizning asosiy mohiyati nimada?

I. Analitik kimyo fani predmeti, vazifalari, axamiyati.

Analitik ximiya – moddalar tarkibini aniqlash metodi xaqidagi fandır. Uning predmeti esa, ximiyaviy analizning nazariy masalalarini echish, mavjud analiz metodlarini takomillashtirish, yangi metodlar ishlab chiqarish va boshqalar bilan shug'ullanadi.

Analitik ximiyaning vazifasi – ximiyaviy va fizikaviy – ximiyaviy analiz metodlarini nazariy taraqqiy ettirish va uni ilmiy tekshirish jarayonida qo'llashdan iborat.

Analitik tekshirish ob'ektiga ko'ra anorganik va organik analizlarga bo'linadi.

Analitik ximiya amaliy fanlar jumlasiga kiradi. Uning amaliy axamiyati juda keng ko'lamli bo'lib, xilma- xildir.

Ximiyaviy analiz yordamida ko'pgina qonunlar kashf etilgan. Tarkibning doimiylik qonuni, karrali nisbatlar qonuni, ekvivalentlar qonuni va boshqalar.

Analitik ximiya bir qancha tabiiy fanlar, jumladan, geoximiya, geologiya, mineralogiya, fizika, biologiya, agroximiya, metallurgiya, ximiyaviy texnologiya, medisina va boshqalar taraqqiyotiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi.

Ximiyaviy analiz hozirgi zamon ishlab chiqarishning ximik texnologik kontroli asoslarini tashkil etadi. Ko'plab zavod fabrikalarda ximiya laboratoriyalari mavjud ularda xomashyo analiz qilinadi. Tayyor maxsulotlar ishlab chiqarish chiqindilari albatta analiz qilinadi. Analiz natijalariga qarab borayotgan texnologik jarayon to'g'risida va xosil bo'layotgan material sifati xaqida xo'losa chiqariladi.

Ximiyaviy va fizik – ximiyaviy analiz metodlari xamma ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarning davlat standartlari (GOST) asosini tashkil etadi.

Ishlab chiqarilayotgan maxsulot ommaviyligiga qarab texnika shartlari. Tarmoq standartlari (OST – otraslevoy standart) va boshqalarga bo'linadi. Hozirgi vaqtda analitik ximiyaning xarakterli xususiyati shundaki, uning tekshirish metodlari instrumental asbob – uskunalar qo'llanish bilan o'zluksiz avtomatik jarayonlarini kontrol qilishga asoslangan. Bu o'z navbatida ko'plab laboratorianing qo'l mexnatini engillashtiradi, mexnat unumdorligini oshiradi.

Ekspress (tezkorlik) metodlari bir necha minut davomida moddaning tarkibini, strukturasini aniqlashga imkon beradi.

Modda tarkibini aniqlash jarayoni xamma vaqt avvalo uning sifat tarkibini aniqlash bilan belgilanib, keyin esa miqdor tarkibi aniqlanadi, so'ngra umumiy xo'losa chiqariladi. Demak, sifat analizining vazifasi moddaning sifat tarkibini aniqlashdan iborat bo'ladi. Sifat analiz kursi, umuman, xam metodologik, xam pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan kursdir. Chunki analitik ximiyadan laboratoriya mashg'ulotida, ilmiy – ateistik nuqtai nazaridan yondashishga imkon beradi.

Analitik ximiya nazariy va amaliy muammolarni echishda katta ahamiyatga ega. Ximiya fanining rivojlanishi xam analitik ximiya bilan bevosita bo'g'liq.

Moddalarning molekulyar massasini aniqlash, ekvivalentini topish, molekulyar formulalarni keltirib chiqarish, biologik manbalardagi ogir metallar, zaxarli birikmalarni aniqlash analitik kimyo metodlari yordamida amalga oshiriladi. Analitik kimyo bilan agronomiya, fiziologiya, mikrobiologiya, veterinariya, zoogigiena, qishloq xo'jaligi xayvonlarini oziqlantirish, medisina, ekalogiya fanlari bevosita bo'g'liq.

Hozirgi vaqtda ximiyaviy texnologik jarayonni nazorat qilinmaydigan birorta xam kimyoviy korxona yo'q. Ximiyaviy analizsiz xomashyo va tayyor maxsulot sifatiga baxo berish, ishlab chiqarish jarayonlarini tushuntirish mumkin emas.

Ekinlardan mo'l xosil olish va chorvachilikda maxsulдорchilikni oshirish vazifasi tuproq tarkibini o'rganish, o'g'itlar, em – xashak tarkibini mukammal bilishni talab

etadi. Bu muammolarni xal etishda bevosita analitik ximiya metodlaridan foydalaniladi.

Shuningdek, medisina turli analizlarni olib borish va shu asosda kasallikni to'g'ri aniqlash va davolash imkonini beradi.

Ayniqsa, xozirgi davrda atrof-muxitni muxofaza qilish global ahamiyatga ega bo'lgan muammolardan biri bo'lib turgan texnika taraqqiyoti davrida analitik kimyo metodlaridan keng foydalanilmoqda.

II. SIFAT ANALIZ METODLARI

Sifat analiz metodlari uchta: fizik, fizik-ximiyaviy va ximiyaviy metodlarga bo'linadi. Bulardan ikkitasi fizik va fizik-ximiyaviy metodlar sistemasining biror bir parametrini priborlar yordamida o'lchashga asoslangan. Shuning uchun bu metodlarni umumlashtirib instrumental metod deb xam yuritiladi.

Ximiyaviy metod esa tekshirilayotgan modddadan yangi tamoman boshqa modda xosil qilishga asoslangandir. Sifat analizi bajarilishi shartiga ko'ra 2ga bo'linadi: «Xo'l» va «quruq» usullardir. Odatda moddaning eritmasidan foydalanilsa eritmaning rangini o'zgarishiga, cho'kma xosil bo'lishiga, gazsimon moddalar ajralib chiqishiga va boshqa belgilarga qarab baxo beriladi.

Ko'pincha reaksiyada cho'kma xosil bo'lishi va eritmaning o'zgarishi asos qilib olinadi. Bunda reaksiyalarni «Ochish» reaksiyalari deb ataladi, chunki bu bilan eritmada ionlar borligi aniqlanadi.

Analiz qilinayotgan moddaning miqdoriga qarab, sifat analizining metod usullari:

1 – jadval

Usullar	Modda miqdori, g	Eritma xajmi, cm^3 , ml
Makro -	0,1 – 1,0	1,0 - 10
Yarimmikro -	0,01 – 0,1	0,1 – 1,0
Mikro -	0,001 – 0,01	0,01 – 0,1
Ultromikro-	10^{-6} – 10^{-9}	10^{-3} – 10^{-4}
submikro	10^{-9} – 10^{-12}	10^{-4} – 10^{-6}

Kimyoviy analiz yarimmikro usulda bajarilganda reaktivlar oz sarflanadi, tajriba kichik xajmli idishlarda o'tkaziladi. Cho'kmalarni eritmada ajratish uchun sentrifugadan foydalaniladi, qizdirish mikro xammomda, bug'latish esa chinni kosachalarda garelka alangasida isitish orqali o'tkaziladi. Bunda reaktivlar tejaladi va umuman analiz o'tkazish qulay bo'ladi. Agar analiz to'g'ri bajarilsa, yarimmikro usul juda aniq natijalar beradi. Shuning uchun moddalarning sifat jixatidan kimyoviy analiz qilishda asosan yarimmikro usuldan keng foydalaniladi.

Sifat va miqdoriy analizning mikro va yarimmikro usullaridan analitik effekt ko'z bilan kuzatilsa, mikro – ultramikro – va submikro usullarda maxsus asboblari: lupa yoki mikroskop, mikrotarozi, mikrobyuretkalar va boshqalardan foydalaniladi.

Reaksiyani sezgirligi.

Analitik reaksiyalar sezgir bo'lishi shart. Reaksiyaning sezgirligi qancha yuqori bo'lsa, u shuncha kam miqdordagi moddani aniqlashga imkon beradi. Reaksiya sezgirligi yoki topilishi minimumidir. U grammning milliondan bir ulushlari, ya'ni mikrogrammlar bilan ifodalanadi va γ (gamma) bilan belgilanadi.

$$1\gamma = 10^{-3} \text{ mg} = 0,000001 \text{ g} = 1 \cdot 10^{-6} \text{ g}$$

Tekshirilayotgan eritma tarkibidagi modda miqdori kam bo'lsa, eritmani bug'latish bilan konsentratsiyasi oshiriladi. So'ngra reaktiv ta'sir ettiriladi.

Analitik ximiya taraqqiyotining qisqacha ocherki

1. Sifat analizining asoschisi R. Boyldir, M. V. Lomonosov ximiyaviy tajribalarda tortishni tavsiya etib, torozini birinchi bo'lib ximiyaviy analizga joriy etdi.

XIX asr boshlarida YA. Bersellius atom massalarini aniqladi va ximiyaviy analizdan foydalandi. Organik moddalarning elementar analizini ham YA. Bersellius kiritdi.

Analitik ximiya taraqqiyotida A. M. Butlerovning tuzilishi nazariyasi, D. I. Mendeleevning davriy qonun salmoqli xissa qo'shdi. S. Arrheniusning elektrolitik dissosiyalanish nazariyasi, N. A. Menshutkin analitik ximiyani o'qitish metodikasiga doir ishlari, A. P. Alimarin, I. I. Chernyaev, L. A. Chugaev, N. A. Tananaev kabi Rus olimlari salmoqli xissa qo'shdilar. Respublikamizda analitik ximiyani taraqqiy ettirishda akademik SH. T. Tolipov va uning shogirdlari ilmiy – tekshirish ishlarini olib bormoqda.

2. Fransuz olimi A. Lavuaz'e (1743-1794y) suv va turli oksidlarni ximiyaviy analiz qilib, ular tarkibidagi elementlardan biri kislorod ekanligini tajribalar yordamida isbotlandi. T. E. Lovis (1757-1804y) moddalarning kristall panjaralarning tuzilishi bilan ularning ximiyaviy tarkibi o'zaro bog'liqligini isbotladi va mikrokristalloskopik analizga asos soldi.

III. Sifat analiz sistemasi

Kationlarning analitik gruppalariga bo'lishning bir necha usuli mavjud. Ulardan eng qulay va ko'proq qo'llaniladigan sulfidli metod xisoblanadi. Kationlarni N_2S ga bo'lgan munosabati bo'yicha analitik gruppalariga ajratishni 1871 yil N. A. Menshutkin taklif etgan. Kationlarning analitik gruppalariga bo'linishi D.I. Mendeleevning elementlari bo'lib, u elementlarning atom va ionlarining tuzilishidan kelib chiqadi. Bu bog'lanish davriy sistemasining uzun davrli variantida yaqqol namoyon bo'ladi.

Esda saqlang

Sifat analizida kationlar analizining 3 xil sistemada qo'llaniladi:

1. Kationlar analizining sulfid sistemasi.
2. Kationlar analizining kislota – ishqorli sistemasi.
3. Ammiak - fosforli sistema

1.Kationlarning analizining sulfid sistemasi.

Bu sistema klassik sistema bo'lib, sifat analizida kationlarning xosil qilgan sulfidlari, xloridlari va karbonatlarining eruvchanligiga asoslanadi. Bu sistemaga ko'ra kationlar 5 ta analitik gruppaga bo'lingan.

1-analitik gruppaga:

K^+ , Na^+ , NH_4^+ , Mg^{+2}

Bularning umumiy gruppaga reagenti yo'q.

2- analitik gruppaga:

Ba^{+2} , Sr^{+2} , Ca^{+2} lar kiradi.

Gruppa reagenti $(NH_4)_2 CO_3$ ammiakli bufer eritma $(NH_4OH + NH_4Cl)$ Me CO_3 Cho'kma xosil qiladi.

Ikkinchi analitik gruppa kationlari $(NH_4)_2 S$ va H_2S yordamida cho'kma xosil qilmaydi.

3- analitik gruppaga:

Al^{+3} , Cr^{+3} , Fe^{+2} , Fe^{+3} , Ni^{+2} , Co^{+2} , Zn^{+2} va boshqalar kiradi.

Bularning umumiy grupp reagenti $(NH_4)_2S$ dir. Muxim neytral yoki kuchsiz ishqoriy bo'lishi kerak.

4- analitik gruppaga:

Cu^{+2} , Cd^{+2} , Hg^{+2} , Bi^{+3} , As^{+3} , Sb^{+5} , Sn^{+2} , Sn^{+4} va boshqalar kiradi.

Bu grupp kationlari kuchsiz kislotali muxitda ($pH=0,5$) sulfidlar tarzda H_2S eritmasi yordamida cho'kmaga tushadi.

Bu grupp 2 podgruppaga bo'linadi:

1. mis podgruppasi: Cu^{+2} , Cd^{+2} , Hg^{+2} , Bi^{+5}

2. podgrupp mishiak: As^{+3} , As^{+5} , Sb^{+3} , Sb^{+5} , Sn^{+4} , Sn^{+2}

Birinchi grupp sulfidlari Na_2S ishtirokida erimaydigan cho'kma xosil qiladi. Ikkinchi podgrupp sulfidlari Na_2S ishtirokida erib ketadi. Sababi tio-tuzlarni xosil qiladi.

Masalan: H_3AsS_3 yoki H_3SbO_4 , H_3SbS_4 ga aylanadi yoki

$SbS_2 + Na_2S = Na_2SbS_3$ natriy tiostannit xosil bo'ladi va

$Sb_2S_3 + 3Na_2S = 2Na_3SbS_3$ tiosti bit xosil bo'ladi.

Butuzlar suvda eriganidan birinchi podgrupp sulfidlari cho'kmasidan fil'trlab ajratib olinadi.

5 – analitik gruppaga: Ag , $[Hg_2]^{+2}$, Pb^{+2} kiradi.

Bularning grupp reagenti $2n$ xlorid kislota dir. Kationlarning bunday 5 gruppaga bo'linishi analiz o'tkazishni osonlashtiradi. chunki grupp reagenti ta'sir ettirib sistemali analiz qilish imkonini beradi.

Demak, avval 5-grupp cho'ktiriladi, so'ngra 4-grupp kationlari N_2S va HCL kislotali muxitda cho'ktiriladi. Ikkalasini ajratib olgach, 3- analitik grupp kationlari, Yangi tayyorlangan $(NH_4)_2S$ eritmasi ammiakli bufer ishtirokida ($pH=7 - 9$) cho'ktiriladi. Qolgan birinchi va ikkinchi grupp kationlari sirka kislota qo'shib bug'latiladi.

Kationlar klassifikasiyasining kator kamchiliklari bor:

A) uchinchi va to'rtinchi grupp kationlarining sulfidlarini eruvchanligi bir-biriga yaqin bo'lganidan ularni ajratishda qiyinchilik tug'iladi, chunki ikkalasi xam birgalikda cho'kadi.

Masalan: SbS_2 bilan birga Ni^{+2} , Co^{+2} cho'kadi.

B) kationlar aralashmasini analiz qilish ko'p vaqt oladi 20-30 s.

V) proses uchun zaxarli, ishlash uchun noqo'lay vodorod sulfid ishlatiladi.

Kationlar analizning kislota-ishqorli sistemasi bo'yicha barcha kationlar 6 gruppaga bo'linadi:

I K ⁺ , Na ⁺ , NH ₄ ⁺ Xloridlari, Sulfidlari Gidroksidlari Suvda eriydi	II III Ag ⁺ , Pb ²⁺ , Hg ⁺² xloridlari suvda va suyultirilgan kislotalarda erimaydi	Ba ²⁺ , Sr ⁺² , Ca ⁺² sulfatlari suvda erimaydi
IV Al ³⁺ , Cr ³⁺ , Zn ⁺² , Sn ⁺² , Sn ⁺⁴ , As ⁺⁵ , As ⁺³ gidroksidlari -amfoter; ishqor Ta'sirida eriydi	V Mg ⁺² , Mn ⁺² , Fe ⁺² , Fe ⁺³ , Bi ⁺³ , Sb ⁺³ , Sb ⁺⁵ gidroksidlari ortiqcha ishqor ta'sirida erimaydi	VI Cu ⁺² , Hg ⁺² , Cd ⁺² , Co ⁺² Ni ⁺² gidroksid- lari eruvchan ammiakatlar xosil qiladi

E'tibor bering

Bu sistema bilan klassifikasiyalashning afzallik tomonlari shundaki kationlar gruppasi ozmi-ko'pmi davriy sistema gruppasiga mos keladi.

Kationlarning ko'proq o'z ichiga oladi: kislota ishqorlarga ta'siri, amfoterlik xossasi, kompleks xosil bo'lishi va boshqalar

Analiz vaqti 30-40%ga kamayadi.

Kamchiligi esa:

Sistema to'la-to'kis ishlab chiqilmagan. Faqat kationlargagina tadbiq etiladi va 4;5 grupp kationlarining gidroksidlarini chuqurroq o'rganib chiqish, ularni bir-biridan ajratib olish masalalari to'liq xal etilganicha yo'q va x.k

IV. KATIONLAR ANALIZINING AMMIAKLI - FOSFORLI KLASSIFIKASIYASI.

Bu sistema Moskva ximiya-texnologiya (MXTI im.Mendeleeva) analitik ximiya kafedrası tomonidan ishlab chiqilgan. Unga ko'ra birinchi analitik gruppaga Na^+ , K^+ , NH_4^+ kationlari kiradi, gruppaga reagenti yo'q.

Ikkinchi analitik gruppaga Ba^{+2} , Sr^{+2} , Ca^{+2} , Mg^{+2} , Fe^{+2} , Fe^{+3} , Mn^{+2} , Al^{+3} , Cr^{+3} , Bi^{+3} kiradi.

Gruppaga reagenti: $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ kuchli ammiak muxitida 2 gruppaga bo'linadi:

1- podgruppaga

Mn^{+2} , Ba^{+2} , Sr^{+2} , Ca^{+2} , Mg^{+2} , Fe^{+2} Ularning fosfatlari kuchli sirka kislota ishtirokida cho'kma xosil qilmaydi.

2- podgruppaga

Fe^{+3} , Al^{+3} , Cr^{+3} , Bi^{+3} kiradi. Ularning fosfatlari suvda erimaydi.

3- analitik gruppalariga:

Cu^{+2} , Hg^{+2} , Cd^{+2} , Co^{+2} , Ni^{+2} , Zn^{+2} Kationlari kiradi. Fosfatlari ammiak ishtirokida eriydi. Chunki ular $[\text{Me}(\text{NH}_3)_4]^{+2}$ tipidagi ammiakatlar xosil qiladi.

4- podgruppaga

Sn^{+2} , Sn^{+4} , Sb^{+3} , Sb^{+5} , As^{+3} , As^{+5}

Bularning birikmalari HNO_3 kislota ishtirokida metastannat kislota H_2SnO_3 va metastibiat kislota HSbO_3 xosil qiladi. Ular suvda erimaydi.

5- analitik gruppaga esa,

Ag^+ , $[\text{Hg}_2]^{+2}$, Pb^{+2} Kationlari kiradi. Xlorid kislota ishtirokida kam eriydigan xlorid tuzlari xosil qiladi.

V. ANIONLARNING ANALITIK GRUPPALARGA BO'LINISHI

Anionlarning sifat analiz qilishda ularni sinflarga ajratish uchun bir qancha sistemalar taklif etilgan bo'lib, ulardan ba'zilar hozircha qo'llanib kelinmoqda.

Anionlar sinflarining mavjud sistemalari, ularning bariyli va kumushli tuzlarining eruvchanligiga anionlarning kislotalarga bo'lgan munosabatiga oksidlovchi reaktivlar bilan qaytaruvchi reaktivlar bilan reaksiyalarga qanday kirishiga asoslangan.

An – I gruppalar	Gruppalarni Tashkil etuvchi anionlar	Gruppa anionlariga umumiy xarakteristika	Gruppa reaktivi
I	SO_4^{-2} , SO_3^{-2} , S_2O_3 , CO_3^{-2} , PO_4^{-3} , SiO_3^{-2} , BO^{2-} , $\text{B}_4\text{O}_7^{-2}$	Bariy kationi bilan xosil qilganzlari suvda juda kam eriydi, ammo suyultirilgan kislotalarda eriydi. (BaSO_4 dan tashqari)	BaCl_2 neytral yoki kuchsiz ishqoriy muxit
II	Cl^- , B^{2-} , J^- , S^- va boshqalar	Kumush kationi bilan xosil qilgan tuzlari suvda va HNO_3 da juda kam eriydi	AgNO_3 nitrat kislota ishtirokida
III	NO_3^- , NO_2^- , CH_3COO^- va boshqalar	Bariy va kumush kationlari bilan xosil qilgan tuzlari suvda eruvchan	Yo'q

ERITMALARNI BO'LIB-BO'LIB YOKI SISTEMALI ANALIZ QILISH.

Tekshirilayotgan eritmada bir emas, bir nechta kationlar aralashgan bo'ladi. Shuning uchun eritmani xoxlagan tartibda «tavakkaliga» analiz qilish mumkin emas. Biror bir kationni ochishdan oldin unga halaqit qiladigan ionlardan ozod qilib olinadi. Buning uchun gruppa reagentidan foydalaniladi. U yoki bu kation yo'qligi gruppa reagenti ko'rsatib beradi. Ammo gruppa reagentidan foydalanib analiz ko'p vaqt talab qiladi.

Chunki cho'ktirish, filtrlash, yuvish, qayta eritish uchun vaqt va texnika (malaka va ko'nikma) kerak bo'ladi. Shuning uchun xozirgi vaqtda eritmani analiz qilish uchun, bo'lib-bo'lib analiz qilishga e'tibor qilinmoqda. Bunday analiz qilishni birinchi bo'lib, N.A. Tananaev tavsiya etdi. 1950 yilda «Bo'lib-bo'lib analiz qilish» deb nomlangan kitobi chiqdi.

Kamchiligi xamma ionlar uchun o'ziga xos reagentlarning etishmasligidir.

VI. Analitik reaksiyalarning sezgirliigi, o'ziga xosliigi va reaksiya olib boriladigan muxitning roli.

Barcha ximiyaviy reaksiyalar muayyan sharoitda o'tkazilishi kerak. Undan chetga chiqish noto'g'ri natijalarga olib keladi. Reaksiya amalga oshayotgan muxit

reaksiyaning natijasiga ta'sir etadigan muxim omillardan biridir. Masalan, NH_4OH li muxitda Ag^+ va AgCl xolida cho'kmaga tushurib bo'lmaydi. Shuning uchun analitik reaksiyalarni o'tkazishdan avval, muxitning pH qiymatiga ega bo'lgan muxit yaratish maqsadida ishqor yoki kislotalardan foydalanish mumkin.

Analitik reaksiyalarini amalga oshirishda temperatura xam sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bahzi bir reaksiyalarni so'vuqda, ayrimlarini xona xaroratida, yana boshqalarini yuqori xarorat sharoitida o'tkazishga to'g'ri keladi. Masalan, Na^+ va K^+ ionlarini cho'ktirish reaksiyasi so'vuqda olib boriladi.

Konsentrasiya xam reaksiya tezligiga ta'sir ko'rsatuvchi muxim omillaridan biridir. Agar aniqlanayotgan ionning konsentrasiyasi ushbu reaktiv ta'sirida topilishi mumkin bo'lgan minimal konsentrasiyadan kam bo'lsa, u xolda reaksiya ijobiy natija bermaydi. Qo'shilayotgan reaktiv ta'sirida xosil bo'ladigan birikma o'ta to'ingan eritma xosil qiladigan miqdorda bo'lishi kerak, ana shundagina cho'kma xosil bo'ladi.

Analitik reaksiyalar sezgir bo'lishi shart. Reaksiyaning sezgirligi qancha yuqori bo'lsa, u shuncha kam miqdordagi moddani aniqlashga imkon beradi. Reaksiyaning sezgirligi topilish minimumi va minimal (yoki chegara) konsentrasiya (va chegara suyutirish) Bilan xarakterlanadi.

Topilish minimumi. Modda yoki ionning ayni reaksiya yordamida ma'lum sharoitida topilishi mumkin bo'lgan eng kichik miqdori uning topilishi minimumi deyiladi. Topilish minimumi gramning milliondan bir ulushlari, ya'ni mikrogrammlar bilan (mkg) ifodalanadi. U grekcha gamma xarfi bilan belgilanadi. $1\gamma = 10^{-3}\text{mg} = 0,000001 \text{ kg} = 1 \cdot 10^{-6}\text{g}$. Masalan, K^+ ionini $\text{K}_2[\text{PtCl}_6]$ kompleks tuzi ko'rinishida aniqlash reaksiyasining topilishi minimum $0,1\gamma$ chegara suyultrish V eritma necha marta suyultrilganda analitik reaksiyaning ijobiy natija berishi saqlanib qolishini ko'rsatadi. C/V - moddaning minimal konsentrasiyasi deb ataladi. K^+ ionini $\text{K}_2[\text{PtCl}_6]$ xolida aniqlashda minimal konsentrasiya 1:100000 nisbat bilan ifodalanadi. Demak, Ushbu reaksiya yordamida kaliy kationini 100000ml suvda 1 grammdan ko'p miqdorda kaliy ionii bo'lgan eritmalarida aniqlash mumkin. Eritmaning ayni modda borligini ochish mumkin bo'lgan minimal xajmi $V=q \cdot V \cdot 10^{-6}$

Minimal konsentrasiya, eritmaning minimal xajmi va topilish minimumi orasida quydagi bog'lanish mavjud:

$$Q=C \cdot V \cdot 10^6 \text{ yoki } C=q \cdot V \cdot 10^{-6}$$

Bu erda: C – minimal konsentrasiya; q - topilish minimumi; V - analiz uchun olingan minimal konsentrasiyali eritma xajmi, ml xisobida.

Eritmalarning tarkibini sifat jixatdan aniqlashda analitik reaksiyaning topilish minimumi 50γ dan yuqori, minimal konsentrasiyasi $1/5 \cdot 10^7$ 2 ml dan kam bo'lmasligi kerak.

Tekshirilayotgan eritma tarkibidagi modda miqdori kam bo'lsa, eritmaning bug'latish Bilan konsentrasiyasi oshiriladi. So'ngra reaktiv ta'sir ettiriladi.

Ximiyaviy toza reaktivlarni qo'llash, Ayni reaksiyaga xalal beradigan moddalarni ajratish yoki xalal bermaydigan birikmalar xoliga o'tkazish, ekstraksiyalash, kationit va anionitlar yordamida eritmani konsentrlash kabi tadbirlar bilan analitik reaksiyalarni sezgirligini oshirish mumkin.




Analitik ximiyada u yoki bu elementga xos reaksiyalar aloxida ahamiyatga ega. Xususiy reaksiya ushbu ionni boshqa ionlar ishtirokida xam aniqlash imkonini beradi. Masalan, kraxmalning yod ta'sirida ko'karishi, ammoniy tuzlariga ishqorlar ta'sir ettirilganda ammiyak gazining ajralab chiqishi singari reaksiyalar bunga misol bo'ladi.

Agar ionlar aralashmasiga qo'shilgan reaktiv faqat, bahzi ionlar Bilan reaksiyaga kirishsa, bunday reaksiyalar selektiv reaksiyalar deb ataladi.

Masalan, $(\text{NH}_4)_2\text{C}_2\text{O}_4$ tuzi kationlari aralashmasiga qo'shilganda faqat Ca^{+2} , Va^{+2} , Sr^{2+} , Zn^{2+} kationlar bilan reaksiyaga kirishadi.


ANALITIK REAKSIYALAR - IONLI REAKSIYALARDIR.

Moddalarni analiz qilish prosessi ko'pincha eritma muxitida o'tkaziladi. tuzlar, asoslar va kislotalar eritmada ionlarga dissosiyalangan bo'ladi. Xar bir ion xususiy xossalari Bilan boshqa ionlardan farqlanadi. Masalan, gidroksid ionlari ishqorlar eritmalarida qaysi kation bilan bog'langanlagidan qat'iy nazar fenolftalein rangini qizil tusga kiritadi. Ximiyaviy analiz uchun qo'llaniladigan birikmalar eruvchilarda eriydi, ularning aksariyati kuchli elektrolitlardir. Demak, birikmalar suvdagi eritmada ionlarga to'liq dissosilangan bo'ladi. shunday qilib, analiz qilinayotgan eritmaga reagent eritmasidan tomizilganda ximiyaviy reaksiya ionlar orasida sodir bo'ladi. Reaksiyani amalga oshirishda ayrim ionlar asosiy rol' o'ynaydi, qolgan ionlar esa reaksiyaga kirishmaydi. Masalan,



Barcha reaksiyalarda oq rangli cho'kma - SrSO_4 tuzi xosil bo'ladi. shunga ko'ra eritmada Sr^{2+} kationlari bor – yo'qligi aniqlanadi.

Yuqorida keltirilgan uchala reaksiya tenglamalarini umumlashtirib, quydagi ionli tenglama bilan ifodalash mumkin:




Demak, Sr^{2+} kation yordamida SO_4^{-2} anionni va aksincha SO_4^{-2} anioni bilan Sr^{2+} kationini aniqlash mumkin. Analitik reaksiyalar ionlar orasida sodir bo'luvchi reaksiyalar bo'lib, analiz natijasida biz ximiyaviy modda eruvchida erishidan xosil bo'lgan kation va anionlarning eritmada mavjudligini aniqlaymiz.

Agar eritmada Ag^+ kation xamda $-\text{NO}_3^-$ anionni borligi bilib olinsa, eritilgan modda AgNO_3 formulaga to'g'ri keladi deb xo'losa chiqarish mumkin.

ANALITIK REAKSIYALARNING YO'NALGANLIGI


Sifat analizida asosan almashinish reaksiyalariga duch kelinadi. Ularning amalga oshishi bir qancha omillarga bo'g'liq. Reaksiyani amalga oshiruvchi omillardan biri reaksiya natijalarda xosil bo'layotgan maxsulotlardan birining kam eruvchan bo'lishidir, masalan



Xosil bo'lgan AgCl tuzi juda kam eruvchan bo'lganligi uchun cho'kmaga tushadi.


Agar eritmada konsentrasiyasi xamda valentliklari bir xil bo'lgan bir qancha ionlar bo'lsa, ular bir reaktiv bilin cho'ktirilganda dastlab eruvchanligi kam birikma cho'kmaga tushadi. Masalan, bir xil konsentrasiyali J^- va Cl^- onlari aralashmasidan iborat eritmaga AgNO_3 tuzi eritmasidan asta-sekin qo'shilganda, birinchi bo'lib, AgJ tuzi cho'kmaga tushadi. chunki tuzining eruvchanligi AgCl ning eruvchanligidan kam. Shuning uchun eritmadan J^- ionlari batamom cho'kib bo'lganidan so'ng eritmada ortiqcha Ag^+ ionlari mavjud bo'lsa, Cl^- ionlari AgCl xolida cho'kmaga tusha boshlaydi.

Reaksiyani vujudga keltiruvchi omillardan yana biri reaksiya maxsulotlaridan birining gazsimon bo'lishidir. Masalan, CO_3^{2-} anionining bor-yo'qligi aniqlash uchun o'tkaziladigan sifat reaksiyalaridan biri karbonat kislota tuzlarining kuchli kislota HCl bilan reaksiyaga kirishdir:



Almashinish reaksiyasi maxsulotlaridan birining kam dissosiyalanuvchan bo'lishini ayni reaksiyani amalga oshiruvchi omillardan uchinchisi deb qarash mumkin.


Bunga misol qilib neytrallanish reaksiyasini ko'rsatish mumkin:



Demak, OH^- va H^+ ionlarning o'zaro birikishi tufayli kam dissosiyalanadigan H_2O molekulasi xosil bo'ladi.

Reaksiya maxsulotlaridan birining o'ziga xos rangga ega bo'lishi xam analitik reaksiyaning yo'nalishini aniqlashda muxim ahamiyatga ega. Masalan, Fe^{3+}



kationining kaliy rodanid $KCNS$ aniqlashda qo'llaniladigan reaksiya qizil – qo'ng'ir tusli temir rodanid xosil bo'lishi bilan amalga oshadi:



Xosil bo'lgan $\text{Fe}(\text{CNS})_3$ tuzi suvda yaxshi eriydi.



Kam eriydigan, gaz xolida ajralib chiqadigan, kam dissosiyalanuvchan moddalar xosil qilish yo'li bilan ayrim ionlar eritma muxitidan chetlantirilsa, almashinish reaksiyalari kutilgan natija beradi.

Reaksiya natijasida yuqorida eslatilgan xarakterdagi moddalardan birontasi xosil bo'lsa, reaktiv va analiz qilinayotgan eritma tarkibidagi ionlar orasidagi ximiyaviy reaksiya amalga oshmaydi, masalan:





Ionli tenglamaning chap va o'ng tomonidagi barcha ionlar eritmada o'zgarmay qolaveradi.

Almashinish reaksiyalarining yo'nalishini o'rganishdan kelib chiqadagan qonuniyatlar analiz o'tkazish prosesslarida muxim ahamiyatga ega. Ba'zan analiz qilinadigan eritmaga kuchli kislotaning ta'sirini yo'qotish maqsadida eritmaga kuchsiz kislotaning tuzi qo'shiladi. Bu tadbirni amalga oshirish quydagi almashinish reaksiyasiga asoslangan, masalan:



Sulfat kislota o'rnida kuchsiz sirka kislota xosil bo'ladi.


Kuchli ishqorni kuchsiz asos bilan almashtirish xam almashinish reaksiyasiga asoslangan, masalan,



Reaksiya maxsulotlaridan biri NH_4OH kuchsiz asosdir.

Ko'pgina analitik reaksiyalarini o'tkazishda eritmada nitrat (NO_3^-) anionning mavjudligi analiz natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki nitrat ionii oksidlovchi

xossalarini namoyon etadi. Nitrat ionlarini yo'qotish uchun eritmaga sulfat kislota qo'shib, eritma quruq qoldiq xosil bo'lguncha bug'latiladi.



Reaksiya natijasida xosil bo'lgan nitrat kislota bug'lari uchib ketadi.

MUSTAXKAMLASH VA NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Analitik kimyo fani predmeti va vazifalari nimalardan iborat?
2. Sifat analizining vazifalari nimalardan iborat?
3. Kationlarni vodorod sulfid yordamida analitik gruppalariga ajratish nimalarga asoslangan?
4. Analitik reaksiyaning sezgirligi nimalarga bo'g'liq?
5. Kationlarni analitik gruppalariga bo'lishning qanday usullari mavjud?
6. Anionlar qanday analitik gruppalariga bo'linadi?
7. Sifat analizining qanday metodlarini bilasiz?
8. Kationlar analizining kislota ishqorli sistemasining mohiyati, yutuq va kamchiliklari nimalardan iborat?
9. Eritmalarni bo'lib – bo'lib sistemali analiz qilishning mohiyati nimada?
10. Sifat analizda qo'llaniladigan eng muhim qanday reaktivlarni bilasiz?

2- MA'VZU.

MAVZU: «SUVNING ELEKTROLITIK DISSOSILANISHI.
SUVNING IONLAR KO'PAYTMASI.TUZLAR GIDROLIZI
GIDROLIZ DARAJASI VA GIDROLIZ KONSTANTASI»

REJA:

1. Suvning elektrolitik dissosilanishi. Suvning ionlar ko'paytmasi.
Vodorod ko'rsatkich.

2. Indikatorlar. Ximiyaviy va biologik proseslarda vodorod ionlari konsentrasiyasining ahamiyati
3. tuzlar gidrolizi. Gidroliz darajasi va gidroliz konstantasi
4. Ionli kimyoviy muvozanatning siljishi.
5. Mustaxkamlash va nazorat uchun savollar

TAYANCH IBORALAR.

Elektrolitik dissosiasiya, dissosillanish darajasi, vodorod ko'rsatkich pH, suvning ion ko'paytmasi, gidroliz, gidrolizlanish darajasi, indikator, ionli tenglamalar, gidrolizlanish konstantasi, elektrolitlar, noelektrolitlar.

MUAMMOLI SAVOL:

1. Elektrolitik dissosilanishning asosiy qoidalarini tahriflang va ularni tushuntirib bering?
2. tuzlar gidrolizini sababi nimada?
3. Gidroliz darajasi nimaga bog'liq?
4. pH va pOH nima? pH-shkaladan qanday foydalanila?

SUVNING DISSOSIYALANISHI.

Distillangan toza suv elektr tokini o'tkazmaydi deyiladi. Lekin tajribalarning ko'rsatishicha, suv juda kam bo'lsada, elektr tokini o'tkazadi.

Demak, u nixoyat kuchsiz elektrolitdir, juda oz bo'lsa xam dissosialanib, H^+ va OH^- ionlarga ajraladi:



Suvning dissosialanishidan xosil bo'lgan H^+ darhol bir molekula suv bilan birikib, H_3O^+ xosil qiladi.

Suvning elektr o'tkazuvchanligi o'lchanib uning dissosiallanish darajasi xisoblab topilgan 22° 11 suvda: 1g molekula suvning 1/1000000 qismi, yag'ni 1 l suvda 10^{-7} mol H_2O dissosilangan bo'ladi.

Bir molekula suvdan bitta H^+ va bitta OH^- xosil bo'lsa, 1l suvda 10^{-7} molg' H_2O xosil bo'ladi.

Shunday qilib, 1l suvda

$$[H^+] = [OH^-] = 10^{-7} \text{ bo'ladi.}$$

Ta'sir etuvchi massalar qonuniga muvofiq suvning dissosilanish muvozanat konstantasi

$$\frac{[H^+] [OH^-]}{[H_2O]} = K$$

$$K = 1,8 \cdot 10^{-16}$$

Toza suv neytral bo'ladi ya'ni undagi H^+ va OH^- ionlarining konsentrasiyasi bir-biriga teng.

$$[H^+] = [OH^-] = 10^{-14} = 10^{-7}$$

Temperatura ko'tarilishi bilan suvning dissosiyalanishi ortadi, shu sababdan K_{H_2O} xam ortib boradi. 100° da $58,2 \cdot 10^{-14}$ bo'ladi.

Shunday qilib, toza suvda

$$H^+ + OH^- = 10^{-14}$$

Agar suvga biror asos qo'shilsa, unda OH^- ning konsentrasiyasi ortadi, H^+ konsentrasiyasi esa kamayada. Ammo bularning ko'paytmasi 10^{-14} tengligicha turadi. Asoslarning eritmasida OH^- konsentrasiyasi 10^{-7} dan ortiq bo'ladi. Umuman, OH^- konsentrasiyasi 10^{-7} dan ortiq xar qanday eritmaning muhiti asosli bo'ladi. Bu ko'pincha, ishqoriy muhit deyiladi.

Neytral muxitda - $[H^+] = [OH^-]$

Kislotali muxitda - $[H^+] > [OH^-]$

Ishqoriy muxitda - $[H^+] < [OH^-]$

Xar qanday eritmada - $[H^+] + [OH^-] = 10^{-14}$ bo'lganidan uning muxitini aniqlash uchun H^+ ning yoki OH^- ning konsentrasiyasini bilish kifoya. Eritma muxitini odatda H^+ ning konsentrasiyasi bilan ifodalash qabul qilingan.

$[H^+] = 10^{-7}$ neytral muxit.

$[H^+] > 10^{-7}$ kislotali muxit

$[H^+] < 10^{-7}$ ishqoriy muxit

Agar eritmada $[H^+] = 10^{-3}$ bo'lsa, OH^- ni xisoblash mumkin $[OH^-] = 10^{-11}$ - bu muxit, kislotali muxitdir. Agar eritmada $[H^+] = 10^{-9}$ bo'lsa $OH^- = 10^{-5}$ bo'ladi. Bu muxit ishqoriy muxitdir.

G'oyat kichik bunday sonlarning ishlatish noqulay bo'lganidan, H^+ ionlar konsentratsiyasi o'nlik logorifmning teskari manfiy qiymati ishlatiladi va u qisqacha pH bilan belgilanadi, vodorod ko'rsatkich deyiladi. Vodorod ko'rsatkich degan tushunchani 1909-yilda Daniyalik kimyogar Seresen kiritgan edi: (A)

$$pH = -\lg[H^+]$$

Neytral muxitda $[H^+] = 10^{-7}$ bo'ladi, unda:

$$pH = -\lg 10^{-7} = -(-7) \text{ bo'ladi.}$$

$pH = 7$ neytral muxit

$pH < 7$ kislotali muxit

$pH > 7$ ishqoriy muxit

Masala: 1. $[H^+] = 10^{-3}$ g/l pH toping.

$$\text{Echish: } pH = -\lg[H^+] = -\lg 10^{-3} = 3$$

$$pH = 3$$

Masala: 2. $pH = 9,4$ $[H^+]$ ni toping.

$$\text{Echish: } -\lg[H^+] = 9,4 \text{ yoki } [H^+] = 10^{-9,4} = 10^{-10+0,6} = 10^{-10} \cdot 10^{0,6}$$

0,6ning antilogorofimi 3,98 bo'ladi

$$\text{Demak, } [H^+] = 3,98 \cdot 10^{-10}$$

“p” xarifi daniyacha potenz – matematikada daraja so'zining bosh xarifi, “H” xarifi volorod simvalidir.


Tabiat va texnikadagi turli-tuman jarayonlarda pH ahamiyati nixoyatda kattadir. Kimyoviy oziq-ovqat va to'qimachilik sanoatlarida xamda sanoatntng boshqa tarmoqlaridagi ko'pchilik ishlab chiqarish jarayonlari muxitning muayyan qiymatida, ya'ni ma'lum muxitdagina sodir bo'ladi. Qishloq xo'jalik ekinlarining yaxshi rivojlanishi va ulardan yuqori hosil olish uchun ximyaviy tuproq eritmasi muayyan muxitli bo'lishi zarur. Tuproq so'rimining pH qiymatiga qarab, tuproqlar kuchli kislotali ($pH = 3-4$), kislotali ($pH = 4-5$), kuchsiz kislotali ($pH = 5$), ishqoriy ($pH = 8-9$) va nixoyat, kuchli ishqoriy ($pH = 9-11$) tuproqlarga bo'linadi. Ko'pincha o'simliklar kuchli kislotalilikdan zararlanadi, uni kamaytirish uchun tuproq oxaklanadi ularga oxak toshlar: $MgCO_3$ yoki $CaCO_3$ solinadi. Agar tuproq kuchli ishqori (sho'rxok va sho'rtob tuproq) bo'lsa, u xolda ishqoriylikni kamaytirish uchun tuproq gipslanadi – unga maydalangan gips $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ qo'shiladi. Eng ko'p ma'lum bo'lgan bahzi eritmalarining pH qiymatini keltiramiz va muvofiq keladigan muxit reaksiyasini ko'rsatamiz: oshqozon shirasi - $pH = 1,7$ (kuchli kislotali muxit), torfli suv - $pH = 4$ (kuchsiz kislotali), yomhir suvi - $pH = 7,5$ (kuchsiz ishqoriy), qon - $pH = 7,4$ (kuchsiz ishqoriy), so'lak - $pH = 6,9$ (kuchsiz kislotali), ko'z yoshlari - $pH = 7$ (neytral).

Muxitning reaksiyasi indikator deb atalgan moddalarning eritmasi yordamida aniqlanadi. Indikatorlar juda kuchsiz kislota yoki juda kuchsiz asoslardir.


Indikator	Rangli (muxitda)		O'tish oralig'i
	Kislotali	Ishqoriy	
Metiloranj	Pushti	To'q sariq	3.1-4.4
Lakmus	Qizil	Ko'k	5.0-8.0

Fenolftalein	Rangsiz	Qizil binafsha	8.2-10.0
--------------	---------	----------------	----------

Indikatorlar shunday moddalarki, ular reaksiya vaqtida ishtirok etib, ekvivalent nuqtaga stganda ko'z bilan seza oladigan (rangning o'zgarishi, cho'kma xosil bo'lishi va x. k.) biror o'zgarish xosil qilish xususiyatiga ega bahzan indikatorlar vazifasini reaksiyaga kirishayotgan moddalardan biri bajarishi mumkin. Suvdagi eritmalarda indikator kuchsiz kislota va kuchsiz asos xossalarini namoyon qilib, ularning dissosilanmaganda molekulalari bir xil rangda dissosilanganda xosil bo'ladigan ionlar boshqa rangda bo'lish xususiyatiga ega. Masalan: Metiloranj, Fenolftalein va Lakmus kuchsiz kislotalar deb qaralsa, ularning dissosilanishi quydagicha bo'ladi:



Bu yerda HJnd, Jnd⁻ dissosilanmagan va dissosilangan indikator formalari bo'lib ularning rangi turlicha (Jnd⁻ - indikatorning murakkab anioni) bo'ladi. Masalan: Fenolftalein kislotali muxitda dissosilanmaydi va HJnd formadagi rangni ko'rsatadi. Bu forma rangsiz. shu indikatorning o'zi ishqoriy muxitda yaxshi dissosilanadi va eritma Jnd⁻ - anionining rangini ko'rsatadi yani bu muxitda eritma pushti – qizil ranga kiradi. Indikatorlarning eritmalarda biror ranga kirish xossasi ular tarkibida xromofor deb ataluvchi qo'shbog'ga ega bo'lgan gruppalarining mavjudligidandir.



Ayniqsa, xinoid gruppasi $\text{=}\langle \text{---} \rangle\text{=}$ bo'lgan tutash qo'sh bog'li indikatorlar xromofor xossaga ega. Xromofor gruppalar soni ortishi bilan indikator rangining o'zgarishi kuchayadi.



Indikator rangining o'zgarishini ko'z bilan kuzatish mumkin bo'lgan pH oralig'ini indikator rangining o'zgarish intervali deyiladi. Bu interval fenolftalein pH= 8,0-9,8 lakmusda pH 5-8, metiloranjda pH 3,1-4,4 ga to'g'ri keladi.

TUZLAR GIDROLIZI.



Moddalarning suv bilan reaksiyaga kirishib parchalanishi gidroliz deyiladi.






Gidroliz zavodlarda yog'och qipig'i, paxta sho'lxasi gidrolizlanib, vino spirti, furfurool va qimmatbaho boshqa moddalar olinadi. Quyida tuzlarning gidrolizlanish tiplarini ko'rib chiqamiz.

Kuchsiz kislota va kuchli asosdan xosil bo'lgan tuzlar gidrolizi:









Muxit ishqoriy $[H^+] < 10^{-7}$









2. Kuchli kislota va kuchsiz asosdan xosil bo'lgan tuzlar gidrolizi.





Muxit kislotali. $[\text{H}^+] > 10^{-7}$ pH < 7

3. Kuchsiz kislota va kuchsiz asosdan xosil bo'lgan tuzlarning gidrolizi.



4. Kuchli kislota va kuchli asosdan xosil bo'lgan tuzlar.

Bular gidrolizlanmaydi va muxit neytral bo'ladi. Xaqiqatdan xam:



Tuzlarning gidrolizlanish xususiyati gidroliz darajasi (γ), bilan xarakterlanadi. Gidrolizlanish darajasi erigan tuz molekulasining qancha qismi gidrolizlanganini ko'rsatadi.

tuzlarning gidrolizlangan molekulalari soni

$$\gamma = \frac{\text{erigan tuzning umumiy molekulari soni}}{\text{...}}$$

Gidrolizlanish darajasi va gidroliz konstantasi orasidagi bog'lanish quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$K_{\text{gidr.}} = \frac{h^2}{(I-h)} * C_o$$


C_o - tuzning dastlabki konsentrasiyasi

$$K_{\text{gidr.}} = h^2 * C_o; h = \sqrt{\frac{K_{\text{gidr.}}}{C_o}}$$


tuzlarning gidroliz darajasi tuzning tabiatiga, eritma konsentrasiyasiga va temperaturaga bog'liq.

Kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan xosil bo'lgan tuzlarning gidroliz darajasi, ayniqsa katta bo'ladi.

Masalan: Odatdagi sharoitda FeCl_3 gidrolizining faqat 1-bosqichi boradi.



Lekin eritma qaynatilsa, uning 2-bosqichi:



Reaksiya tenglamalaridan ko'rinyaptiki, kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuz ham kation, ham anion bo'yicha gidrolizlanadi. Odatda bunday tuzlarning gidrolizi to'liq ro'y beradi. Eritmaning muhiti hosil bo'lgan kislota va asosning K_{dis} — qiymatiga, ya'ni ularning qanchalik darajada dissosilanishiga bog'liq bo'ladi. Agar $K_{\text{dis.kisl}} > K_{\text{dis.asos}}$ bo'lsa, eritma kislotali muhitga ($\text{pH} < 7$) $K_{\text{dis.kisl.}} < K_{\text{dis.asos}}$ bo'lsa, eritma ishqoriy muhitga ($\text{pH} > 7$) ega bo'ladi.

3-turdagi gidroliz reaksiyalari quyidagi hollarda ham boradi.

Agar kuchsiz asos va kuchli kislotadan hosil bo'lgan biror tuz eritmasi ikkinchi — kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuz eritmasi bilan aralashtirilsa ikkala tuz birgalikda gidrolizga uchraydi. Birgalikda ro'y beradigan gidroliz to'liq boradigan gidroliz bo'lib, uni quyidagi misolda ko'rib chiqaylik. Agar AlCl_3 tuzi

eritmasiga Na_2S ertmasi qo'shilsa, eritma tezda oq rangli loyqaga aylanib, qo'lansa hid chiqara boshlaydi.


Uning sababi AlCl_3 va Na_2S birgalikda suvda yomon eriydigan $\text{Al}(\text{OH})_3$ va qo'lansa hidli H_2S — gazi hosil bo'ladi;



Reaksiyaning ionli tenglamasi:



Qisqa ionli tenglamasi:



Eritmaning muhiti yuqoridagi (3-tur) gidroliz reaksiyalardagi singari hosil bo'ladigan kislota yoki asosning kuchi bilan tavsiflanadi.

Umuman, gidroliz keng manoda bu turli xil moddalar bilan suv orasida sodir bo'ladigan almashinib parchalanish reaksiyasidir.

Bunday tarif organik birikmalarning murakkab efirlar, yog'lar, uglevodlar, oqsillarning gidrolizini ham, anorganik moddalarning tuzlar, galogenlar, galogenidlar, metalmalar va h.k.dan gidrolizini o'z ichiga oladi. Yog'ochning gidrolizi keng ko'lamda amalga oshiriladi. Jadal rivojlanayotgan gidroliz sanoati ovqat bo'lmaydigan xom-ashyodan (yog'och, paxta sho'lxasi, kungaboqar po'chog'i, poxol, makkajo'xori o'zagidan) qator qimmatli mahsulotlar: etil spirti, xamirturush, glyukoza, qattiq uglurod-(IV) oksidi, furfurol, metil spirt, lignin va boshqa ko'pgina moddalar ishlab chiqarmoqda.

Kuchli asos va kuchli kislotalardan hosil bo'lgan tuzning gidrolizlanish konstantasi va gidrolizlanish darajasi quydagicha yoziladi:

$$K_{\text{gidr.}} = \frac{K_{\omega}}{K_{\text{na}}}; h = \sqrt{\frac{K_{\omega}}{K_{\text{na}} \cdot C}}$$

K_{na} - kuchsiz kislotalarning dissosialanish konstantasi. C - konsentratsiya

Vodorod ionlari konsentratsiyasining doimiyligini organizm ichki muhitining eng muhim konstantalaridan biridir Masalan: odam qonida $\text{pH} = 7,36$ bo'ladi.

Turli xil biologik katalizatorlar (ferment) - aktivligi, ko'pincha to'qimalarda sodir bo'ladigan bioximik proseslar spesifikasi xam pH qiymatining mag'lum cheklangan zonalar bilan bog'langandir.

Biologik obektlarda reaksiya muxitini aniqlash va vodorod ionlari konsentratsiyasini bilish ko'pincha laboratoriya tajribasida zarur bo'ladi.


Bunday aniqlashlar, masalan, mikroorganizmlarning optimal xayot faoliyati uchun zarur bo'lgan reaksiya muxitini yaratishda kerak bo'ladi.

IONLI KIMYOVIY MUVOZANATNI

SILJISHI

Kuchsiz elektrolitlarning eritmalarida ionli kimyoviy muvozanat xam boshqa kimyoviy muvozanatlar kabi ma'lum bir xolatda o'zgarmay turaveradi.

Agar Le-Shatelg'e prinsipi bo'yicha muvozanatda turgan sistemaga chetdan biror ion kiritisa kimyoviy muvozanat ma'lum bir tomonga yo'naladi. Kuchsiz elektrolit eritmalarida kimyoviy muvozanat ro'y berganda, eritmaga suv qo'shish, uning dissosilanishini oshiradi yoki ergamadagi biror ionning konsentrasiyasini oshirish xam kimyoviy muvozanatning siljishiga olib keladi. Masalan, dissosilanayotgan sirka kislota eritmasida kimyoviy muvozanat ro'y berganda yani.



Yoki massalar saqlanish qonuni bo'yicha*

$$K = \frac{[\text{H}^+][\text{CH}_3\text{COO}^-]}{[\text{CH}_3\text{COOH}]} \text{ bo'lganda,}$$

uning biror yaxshi dissosiallanadigan tuzi, masalan, CH_3COONa qo'shilganda, eritmada CH_3COO^- konsentrasiyasi ortganligi uchun kimyoviy muvozanat CH_3COOH ning xosil bo'lishi tomoniga qarab siljiydi, CH_3COOH ning dissosilanish darajasi kamayadi

Gidroliz maxsulotining cho'kma, gaz yomon dissosilanuvchi modda bo'lishi muvozanatni o'nga siljitadi, bunda gidroliz darajasi katta bo'ladi. Eritma ko'p suyultrilsa, gidroliz darajasi ortadi, chunki suvning konsentrasiyasi oshganida, ta'sir etuvchi massalar qonuniga muvofiq muvozanat o'ngga siljiydi.

Eritma istilganda xam gidroliz kuchayadi, chunki temperatura ko'tarilganda suv molekularining dissosilanishi zo'rayadi, H^+ bilan OH^- iolarining konsentrasiyalari ortadi va muvozanat o'ngga siljiydi. Demak gidrolizni kuchaytirish uchun eritmani suyultrish va isitish kerak ekan.

Gidrolizni susaytirish uchun reaksiya maxsulotlaridan birini oshirib muvozanat Chapga surish, reaksiyani sovuqda olib borish va konsentrlangan eritmalaridan foydalanish kerak.

MUSTAXKAMLASH VA NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Kuyidaga moddalarning suvdagi eritmalarida elektrolitik dissosilanish tenglamalarni yozing. A) KOH ; V) AgCl ; S) Na_2CO_3 ;
2. Elektrolitik dissosilanishning asosiy nazariy qoidalarini tariflang va ularni tushuntirib bering.
3. Kuchli va kuchsiz elektrolitlarga misollar keltiring.
4. Kuyidaga ko'rsatilgan eritmalaridan kuchli elektrolitlarni ko'rsating
A) 100% H_2SO_4 ; B) HNO_3 ning suvdagi eritmasi; V) azotning suvdagi eritmasi; S) yodning spirtidagi eritmasi.

5. K_2S , KCN , $Al(SO_4)_3$, Ag_2S_3 , $CuCl_3$, $ZnCl_2$ tuzlarning gidroliz reaksiyasining molekulyar va ionli ko'rinishlarini yozing.
6. Gidrolizlanish konstantasi, gidrolizlanish darajasi mohiyatlarini tushuntirib bering.
7. Toza suvga ishqor qo'shib eritmadagi OH^- ionlari konsentrasini $1 \cdot 10^{-6}$ g ionlaga egkaziladi. H^+ ionlari konsentrasiyasini toping.
8. Kation bo'yicha, anion bo'yicha gidrolizga uchraydagan tuzlarga misollar keltiring.
9. Tuzlarning gidrolizlanishida kimyoviy muvozatni ma'lum bir tomonga siljitish uchun qanday faktorlar ta'sir etadi.
10. Tuzlar gidrolizini sababi nimada?

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR.

1. N.YA.Loginov i dr. «Analiticheskaya ximiya» M.Prosveshenie 1979 g.
2. A.P.Kreshkov «Osnovi analiticheskoye ximii» M 1979 g
3. P.I.N.Nazarov, Z.A.Aminov «Analitik ximiya» Toshkent O'qituvchi 1984
4. Z.P.Zenchik «Analitik kimyo» Toshkent <<Medisina nashriyoti» 1976
5. I.K.Sitovich «Kurs analiticheskoy ximii» «Vishaya shkola» 1977
6. A.Abdullaev.Y.Aroslovsev «Sbornik zadachi uprajneniy po analiticheskoy ximii» «Visshaya shkola» M 1979 g
7. Z.Kodirov va boshqalar «Kimyoviy tenglamalar tuzish» Toshkent 1998 y
8. I.Askarov, M.Qayumova, X.Raximov «Anorganik va umumiy kimyodan masalalar echish» Toshkent 1995 y

3- ma'vzu.

Mavzu: Massalar ta'siri qonuni .

Sifat analizining nazariy asosidir.

Bufer eritmalar va ularning analizdagi ahamiyati.

Reja:

1. Massalar ta'siri qonuni.
2. Bufer eritmalar. Bufer eritmalar tayyorlash.
3. Bufer aralashmaning pH ni hisoblash.
4. Mustaxkamlash nazorat uchun savollar.

Tayanch iboralar.




Kimyoviy muvozanat, muvozanat konstantasi, Bufer eritmalar, bufer aralashmalar, bufer sig'imi, vodorod ko'rsatkich (pH), gidroliz, neytral eritmalar.

Muammoli savol:

1. Massalar ta'siri qonuni matematik ifodasini yozib tushuntiring?
 2. Bufer eritmalar qanday xossalarga ega ?
- Bufer eritmaning pH va bufer sig'imi nimaga bog'liq ?

1. Massalar ta'siri qonuni.

Analitik reaksiyalarning ko'pchiligi qaytar, ya'ni bir vaqtda bir-biri riga qaram-qarshi ikki yo'nalishida boradigan reaksiyalardir. Masalan Va^{2+} va Fe^{3+} ionlarini topish reaksiyalari ana shunday reaksiyalar jumlasiga kiradi:




Qaytar reaksiyaning chapdan o'ngga boradigani to'g'ri reaksiya, o'ngdan chapga boradigani esa teskari reaksiya deyiladi.

Umumiy kimyo ko'rsidan ma'lumki, eritmada reaksiya uchun olingan va reaksiya natijasida hosil bo'lgan hamma moddalar mavjud bo'lganda qaytar reaksiyalar kimyoviy muvozanatga olib keladi.

Kimyoviy muvozanat vujudga kelishiga sababreaksiyaga kirishuvchi moddalarning konsentrasiyalari o'zgarishi natijasida to'g'ri va teskari reaksiya tezliklarining bir-biriga tenglashib qolishidir.

Kimyoviy reaksiyalarning tezligi reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentrasiyalarining vaqt birligi ichida o'zgarishi bilan o'lchanadi.

Eritmada qaytar reaksiya borayotir, deb faraz qilaylik:



Bunda A, B, C, D — reaksiya borayotgan aralashmadagi xar xil moddalar.

-2-

To'g'ri reaksiyaning tezligi A va B moddalarning konsentrasiyalariga to'g'ri proporsionaldir.

Reaksiyaga kirishadigan va reaksiya natijasida hosil bo'ladigan moddalarning konsentrasiyalari bir litrdagi molg' miqdori bilan ifodalanishini xamda shu moddaning formulasi o'rta qavs ichiga olib ko'rsatilishini eslatib o'tamiz.

To'g'ri reaksiyaning tezligini quydagicha yozish mumkin.

$$V_1 = K_1[A] \cdot [B] \quad (1)$$

Bo'nda V_1 — to'g'ri reaksiyaning tezligi;

K_1 — reaksiyaning tezlik konstantasi deb ataluvchi proporsionallik koeffisienti.

Agar [A] va [B] konsentrasiyalarni 1 molga teng desak, u holda:

$$V_1 = K_1$$


Reaksiyaga kirishadigan moddalardan har birining konsentrasiyasi 1 mol/l bo'lganda (yoki ularning ko'paytmasi birga teng bo'lsa) boradigai reaksiyaning shu sharoitdagi tszligi uning tezlik konstantasi dsyiladi. Xuddi shunga o'xshash, teskari reaksiyaning tezligi V_2 ni quydagicha yozish mumkin:

$$V_2 = K_2[C] \cdot [D] \quad (2)$$

Reaksiya davomida A va V moddalarning konsentrasiyalari borgan sari kamayib, S va D moddalarning konsentrasiyalari ortib boradi. Demak, vaqt o'tgan sari to'g'ri reaksiyaniig tezligi kamayib, teskari reaksiyaning tezligi noldan boshlab ortib boradi. Nixoyat ikkala tezlik teng bo'lib qoladi.

Kimyoviy muvozanatda vaqt birligi ichida har bir moddaning (A, B, C va D) qancha molekulasi reaksiyaga kirishsa, qarama-qarshi reaksiya natijasida ulardan o'shancha miqdorda hosil bo'ladi. Demak, kimyoviy muvozanat vujudga kelganda reaksiya borayotgan aralashmadagi hamma moddalarning konsentrasiyasi o'zgarmay qoladi. Bunda reaksiya go'yo to'xtab qolgandek bo'ladi; aslida esa ikkala reaksiya ham davom etaveradi, biroq ularning biri ikkinchisining natijasini yo'qqa chiqaradi.

Agar ushbu:



reaksiyada aralashmaga ortiqcha miqdorda $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ qo'shilsa, to'g'ri reaksiya ketadi, ya'ni VaCrO_4 cho'kmaga tushadi. Agar ortiqcha miqdorda HCl qo'shilsa, teskari reaksiya sodir bo'lib, VaCrO_4 cho'kmasi eriydi va reaksiya yana davom etaveradi. Shunday qilib, kimyoviy muvozanat siljuvchan, ya'ni dinamik muvozanatdir.

Muvozanat vaqtida $V_1 = V_2$ bo'ladi. Bu tenglamaga (1) va (2) tenglamalardagi V_1 va V_2 larning qiymatini qo'yamiz:

$$K_1 = [\text{A}] \cdot [\text{B}] = K_2 [\text{C}] \cdot [\text{D}]$$

Konsentrasiyalari ifodasini tenglamaning bir tomoniga, doimiy miqdor K_1 va K_2 larni esa ikkinchi tomoniga ko'chiramiz:

$$\frac{K_1}{K_2} = \frac{[\text{C}] \cdot [\text{D}]}{[\text{A}] \cdot [\text{B}]}$$


Ikki konstantaning nisbati ham doimiy son bo'ladi, uni K bilan belgilab, (3) tenglamani quydagicha yozish mumkin:

$$K = \frac{[\text{C}] \cdot [\text{D}]}{[\text{A}] \cdot [\text{B}]} \quad (4)$$

Umumiy holda tenglama (4) kimyoning eng asosiy qonunlaridan biri bo'lgan massalar ta'siri qonunining matematik ifodasidir.

Esda saqlang !


Muvozanat karor topganda reaksiyada xosil bo'lgan moddalar konsentraciyalari ko'paytmasining reaksiya uchun olingan moddalar konsentraciyasiga ko'paytmasiga berilgan temperaturada shu reaksiya uchun o'zgarmas son bo'lib, muvozanat konstantasi deyiladi.



reaksiyaning muvozanati reaksiyaga kirishayotgan moddalarning konsentraciyasi:

$$K = \frac{[\text{C}] \cdot [\text{D}]}{[\text{A}] \cdot [\text{B}]}$$

tenglamani qanoatlantirgan vaqtda vujudga keladi. Umumiy xolda



reaksiya uchun (t , p , r va q — stexiometrik koeffitsientlar) muvozanat xolatida:

$$K = \frac{[\text{C}]^p \cdot [\text{D}]^q}{[\text{A}]^m \cdot [\text{B}]^n}$$

Muvozanat konstantasi K ning fizikaviy mahnosi uning K_1


K₂

ga tengligidan ayokdir, ya'ni u konsentrasiyalar bir xil (har biri bir molg'/l ga teng) bo'lganda va berilgan temperaturada to'g'ri reaksiyaning tezligi teskari reaksiyaning tezligidan necha marta katta ekanini ko'rsatadi. Agar K ning qiymati 1 dan kichik bo'lsa, bu teskari reaksiya katta tezlik bilai borayotganini bildiradi. Bundan ko'rinadiki, K ning son qiymatiga qarab reaksiyaning qaysi tomonga borayotganini bilish mumkin. Agar muvozanat konstantasi K juda katta bo'lsa, bu to'g'ri reaksiya deyarli oxirigacha borishini, teskari reaksiya esa deyarli bo'lmayotganligipi bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, bu holda muvozanat o'ngga siljigan bo'ladi. K ning qiymati juda kichik bo'lsa asosan teskari reaksiya ketib, muvozanat chapga kuchli darajada siljigan bo'ladi. Nixoyat, agar K ning qiymati 1 ga yaqin bo'lsa, reaksiya qaytar bo'ladi. Bu holda muvozanat reaksiyada ishtirok etayotgan to'rttala moddaning ham konsentrasiyasi bir muncha katta bo'lganda vujudga keladi. Quyida sistemaning muvozanat holati K ning qiymatidan tashqari, reaksiyaga kirishayotgan moddalarniig dastlabki konsentrasiyalariga ham bog'liq bo'lishi ko'rsatilgan. Muvozanat konstantasining qiymati esa moddalarning konsentrasiyalariga bogliq emas. K ning doimiyligini xam xuddi ana mahnoda tushunmoq kerak. Chunonchi, A va V moddalarning konsentrasiyalari qanday bo'lishidan qattiy nazar

$$\frac{[C]^p \cdot [D]^q}{[A]^m \cdot [B]^n}$$

Nisbat muvozanat xolatida o'zgarmas temperaturada bir xil kimatga ega bo'ladi. Temperaturaning har qanday o'zgarishi K ning qiymati o'zgarishiga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, berilgan modda har bir temperaturada qandaydir muayyan eruvchanlikka ega bo'lganidek, har bir tempsratura uchun reaksiya muvozanat konstantasiniig ham ma'lum qiymati to'g'ri keladi.


Quyidagi qaytar reaksiyani ko'rib chiqamiz:




$$\frac{[\text{Fe}(\text{CNS})_3][\text{KCl}]^3}{[\text{FeCl}_3][\text{KCNS}]^3} = K$$

Massalar ta'siri qonuni asosida shunday yozish mumkin: Konsentrasiyalarning bu nisbatidan to'g'ri reaksiya tezligini oshirish, ya'ni muvozanatni yangi moddalar hosil bo'ladigan tomonga surish ksarak bo'lsa, u holda boshlang'ich moddalardan birining FeCl₃ yoki KCNS ning konsentrasiyasini oshirish kerak, degan xo'losa kelib chiqadi. Massalar ta'siri qonuniga muvofiq, bu nisbat berilgan temperaturada o'zgarmas bo'lib qolishi lozim va kaspHing qiymati o'zgarmasligi uchun kaspHing surati, ya'ni hosil bo'layotgan moddalarning konsentrasiyasi oshishi kerak. Va, aksincha Fe(CNS)₃ yoki KCl ning konsentrasiyasini oshirib, muvozanatni teskari tomonga siljitish mumkin.

Faraz qilaylik:



reaksiyada moddalarning konsentrasiyasi o'zgarishi bilan muvozanat konstantasi K o'zgarmaydi, ya'ni u konsentrasiyaga bo'g'liq emas masalan:



$$K = \frac{[\text{VaCrO}_4]^2 [\text{H}^+]^2}{[\text{Va}^{2+}]^2 [\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}] \cdot [\text{H}_2\text{O}]}$$

Muvozanat qaror topgandan keyin reaksiya uchun olingan moddalarning birortasidan, masalan $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ dan yana qo'shildi, deb faraz qilaylik. Eritmada Va^{2+} ionining konsentrasiyasi kama-yadi, chunki $\downarrow \text{VaCrO}_4$ ko'payadi. Agar $[\text{H}^+]$ ko'paysa, unda $\downarrow \text{VaCrO}_4$ cho'kmasining miqdori kamayadi. Muvozanat darhol reaksiya mahsulotlari

$\text{VaCrO}_4 + \text{KCl} + 2\text{HCl}$ hosil bo'lishi tomoniga siljiydi. Endi muvozanat reaksiyada ishtirok etadigan hamma moddalarning boshqa konsentrasiyalarida vujudga keladi.

Xuddi shunga o'xshash, reaksiya natijasida hosil bo'ladigan moddadan birining, ya'ni HCl ning qo'shilishi teskari reaksiya-ning tezligini vaqtincha oshiradi. Shunday qilib, reaksiyaga kirishayotgan moddalardan birining qo'shilishi kimyoviy muvozanatni siljitadi, ya'ni reaksiyada ishtirok etayotgan hamma moddalarning konsentrasiyasini o'zgartirib yuboradi, bu o'zgarish moddalarning konsentrasiyasi massalar ta'siri qonuni tenglamasini qanoatlantirmaguncha davom etaveradi. Qushilgai modda qaysi reaksiyada sarflansa, hamma vaqt shu reaksiyaning tezligi ortadi.

Bundan muhim xo'losa chiqarish mumkin: *qaytar reaksiyalarda dastlabki moddalardan birini (masalan, VaCl_2) etarli darajada to'liq o'zgartirish uchun shu o'zgarishni vujudga keltiradigan reagentdan (mazko'r misolda bunday reagent $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ dir) mo'lroq ta'sir ettirish kerak.*

E'tibor bering !

Massalar ta'siri qonunining analitik kimyoda ahamiyati juda katta, ishlatish sohalari keng. Bu qonun jumladan, quyidagi hollarda qo'llaniladi:

1. Kuchsiz elektrolitlarning dissosilanish konstantasini hisoblashda;
2. Gidroliz konstantasini hisoblashda;
- 3 Kompleks birikmalarning barqarorligini aniqlashda;
4. Yaxshi erimaydigan cho'kmalar hosil bo'lishini va ularning erishini aniqlashda;
5. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining yo'nalishini aniqlashda.

Muvozanat konstantasining tenglamasini ifodalashda eritmada erigan holda bo'lgan ionlar yoki molekulyar birikmalargina hisobga olinadi. Agar reaksiyaga kirishayotgan moddalar cho'kma tarkibida yoki gazsimon modda ko'rinishida ajralib chiqayotgani bo'lib, ularning eritmadagi aktiv miqdorini aniqlash mumkin bo'lmasa, uni doimiy deb qabul qilib K bilan belgilanadi.


Eruvchi qisman kimyoviy reaksiyaga kirishgan holda ham uning miqdori o'zgarmas deb qabul qilinadi.

Bufer eritmalar. Bufer eritmalar tayyorlash.


Ximiyaviy analiz vaqtida cho'ktirish, eritish, rangli eritmalar xosil qilish uchun eritmadagi (H^+) va pH ni zarur miqdorlarda ushlab turish olib borish tavsiya etiladi. Buning mohiyati eritmaning pH bufer qiymati ishtirokida aralashmaga kislota yoki ishqor qo'shilganda kam o'zgaradi. Bufer eritmalar ikki xil bo'ladi: a) kuchsiz kislota va uning kuchli asos bilan xosil qilgan tuzi aralashmadan iborat sistema, masalan asetat bufer $CH_3COOH + CH_3COONa$ fosfat bufer

$H_3PO_4 + NaH_2PO_4$; b) kuchsiz asos va uning kuchli kislota bilan xosil qilgan tuzidan iborat aralashma: masalan, $NH_4Cl + NH_4OH$ iborat aralashmalar bufer xossasini namoyon qiladi. Bufer eritmalar bufer ta'sirini quydagicha tushunish mumkin.

a) ishqor ta'sir etganda:





ionli formada: $OH^- + H^+ \rightarrow H_2O$ yoki b) kislota ta'sir ettirsa,




ionli formada: $CH_3COO^- + H^+ \rightarrow CH_3COOH$

Natijada birinchi xolatda kam dissosilanuvchi N_2O va ikkinchi xolatda kam dissosialanuvchi CH_3COOH xosil bo'ladi. Eritmaning pH qiymati saqlanib koladi.

Shuningdek, ammoniy buferning ta'sir qilish mexanizmi ham quydagicha:





Ko'pchilik analitik reaksiyalarda ionlarni ajratishda suvli eritmada muhitni o'zgartirmasdan olib boriladi. Masalan:

1. II grupp kationlarini cho'ktirish uchun $\text{pH} = 9,2$ bo'lishi shart.
2. V^{2+} ionlarini $\text{K}_2\text{Sg}_2\text{O}_7$ bilan cho'ktirish uchun $\text{pH}=4-5$ bo'lishi kerak.
3. Ko'pchilik kationlarning organik rsaktivlar bilan birikmalari ma'lum bir pH da hosil bo'ladi. Eritmaning pH ini deyarli doimiy o'zgartirmay ushlab turish uchun bufer eritmalar ishlatiladi.

Toza suvga kuchli kislota yoki kuchli ishqordan oz miqdorda qo'shilsa, eritmaning pH i keskin o'zgaradi. Kuchsiz asos va uning tuz aralashmasiga oz miqdorda kuchli kislota yoki ishqor qo'shilsa, eritma pH ning o'zgarishi butunlay boshqacha bo'ladi. Shunday qilib, eritmada bunday (bufer) aralashmaning bo'lishi eritma pH ini o'zgartiradigan har qanday omillarning ta'sirini kamaytirib, undagi H^+ va OH^- ionlarning konsentrasiyasini ma'lum miqdorda saqlab turadi. Ana shunday eritmalar, aralashmalar, rostlovchilar (regulyator) *bufer sistemalar* deyiladi.

Bufer sistemalar bir vaqtning o'zida biror kuchsiz kislota va uning tuzidan, kuchsiz asos va uning tuzidan yoki o'rta kuchsiz kislota va shunga muvofiq keladigan tuz aralashmasidan tayyorlanadi.

Bufer ta'sirining mohiyati quydagicha: bufer aralashma tarkibiga kirgan birikmalardan bittasi vodorod ionini boshqasi gidroksil ionini bog'lab, kuchsiz elektrolitning (kislota, suv yoki asos) molekulasini hosil qiladi.

Agar bir litr suvda 0,01 molg' HCL eritilsa xlorid kislotaning 0,01 n eritmasi hosil bo'lib, bu eritmada H^+ ionlarining konsentrasiyasi 10^{-2} bo'ladi. Demak, bunda eritmaning pH i 7 dan 2 gacha kamayadi. Bir litr toza suvda 0,01 molg' o'yuvchi natriy eritilsa, eritmaing pH i 14 dan 12 gacha kamayishini hisoblab topish mumkin: $\text{pOH} = 2$; $\text{pH} = 14 - 2 = 12$.


Kuchli kislota va ishqorlarning juda suyultrilgan eritmalariga yoki kuchsiz kislota va asoslarniig konsentrlangan eritmalariga oz miqdorda kuchli kislota yoki ishqor qo'shilsa pH keskin o'zgaradi.

Masalan: pH i 5 ga teng bo'lgan $1 \text{ l } 10^{-5} \text{ M HCL}$ eritmasiga 0,01 M HCL qo'shilsa, eritmada kislotaning umumiy konsentrasiyasi $10^{-5} + 10^{-2} = 10^{-3} \text{ g ion molg'}$ bo'ladi va eritmaning pH i 5 dan 3 gacha o'zgaradi, ya'ni ikki birlikka kamayadi. $1 \text{ l } 10^{-5} \text{ M HCL}$ eritmasiga 0,01 molg' NaOH qo'shilganda KOH ning eritmada konsentrasiyasi $10^{-2} + 10^{-5} = 10^{-3} \text{ M}$ ga teng bo'ladi. Natijada bu eritmaning pOH i 2 ga teng bo'lib, $\text{pH} = 12$ bo'ladi. Demak, o'yuvchi natriy qo'shilishi natijasida eritmaning pH i 7 birlikka o'zgaradi.

Kuchsiz kislota va uning tuzi aralashmasiga oz miqdorda kuchli kislota yoki ishqor qo'shilsa, pH ning o'zgarishi butunlay boshqacha bo'ladi. Haqiqatan ham, konsentrasiyalari 0,1 M bo'lgan CH_3COOH va CH_3COOK aralashmasining bir litrga 0,01 molg' HCL qo'shilsa, eritmada H^+ ionlarining konsentrasiyasi, yuqorida

Shunday qilib, eritmada kuchsiz kislota va uning tuzi bo'lishi eritmaning pH ni o'zgartiradigai har qanday omillarning ta'sirini kamaytirib, undagi H^+ ionlarining konsentrasiyasini ma'lum miqdorda saqlab turadi. Bunday aralashmalar regulyator yoki bufer aralashmalar deyiladi.

Bufer aralashmalar {HCl { HCOOH { CH₃ SOON {Na₂ NPO₄ { NH₄OH
 { KCl { HCOONa { CH₃COONa {Na H₂PO₄ { NH₄Cl}

$$\text{CH}_3\text{COOH} + \text{CH}_3\text{COONa} \rightarrow \text{CH}_3\text{COONa} + \text{H}_2\text{O}$$


33

Esda saqlang !

1 litr bufer eritmaga qo'shilganida eritma pH ini bir kattalikka o'zgartirish uchun sarflanishi kerak bo'lgan kuchli kislota yoki asosning ekvivalentlar soni ayni eritmaning bufer sig'imi deb ataladi.

Kislota yoki ishqopHing g-ekvivalent soni shu eritmaning bufer sig'imi deb ataladi.

$$B = \frac{C}{pH_2 - pH_1}$$

B-bufer sig'imi;
S-kuchli kislota yoki kuchli
asosning g/ekvivalent soni.
 pH_1 – bufer eritmaning k-ta yoki ishqor

qo'shishdan oldingi vodorod ko'rsatkichi.

pH_2 –ishqor yoki kislota qo'shilgandan keyingi vodorod ko'rsatkichi

Bufer eritma o'simlik va xayvonlar organizmida muxim ahamiyatga ega.

Qon, limfa va boshqa suyuqliklarning pH qiymatini bufer eritmalar bir xilda saqlab turadi.

Tuproq ham ma'lum bufer xossasiga ega.

Bu buferlikni tuproq eritmasidagi gidrokorbanatlar, tuproq kolloidlari va fosfatlar xosil qiladi.

Bu o'simlikning normal rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Tarkibni o'zgartirish yo'li bilan pH qiymati turlicha bo'lgan bufer eritmalar tayyorlash mumkin.

1- Jadval.



Asetatli bufer eritma tayyorlash.

pH CH ₃ COOH 1n,ml	pH CH ₃ COOH 1n,ml	pH CH ₃ COOH 1n,ml
3,8 421,5	4,67 100,0	5,5 57,4
3,9 343,4	4,7 96,8	5,6 55,9
4,0 284,4	4,8 87,2	5,7 54,7
4,1 236,2	4,9 79,4	5,8 52,7
4,2 197,6	5,0 73,4	5,9 53,0
4,3 167,4	6,1 68,6	6,0 52,3
4,4 143,3	5,2 64,8	6,1 51,9
4,5 124,1	5,3 61,7	6,2 51,5
4,6 108,9	5,4 59,3	6,3 51,2

Zaruriy pH ga ega bo'lgan bufer eritma tayyorlash uchun 1 n sirka kislota eritmasidan jadvalda ko'rsatilgan xajmda o'lchab olinadi, unga 50 ml NaOH eritmasidan qo'shiladi va distillangan suv solib umumiy xajmi 500 ml ga etkaziladi.

3. Bufer aralashmaning pH ni hisoblash

Ushbu bufer aralashmani ko'rib chiqamiz:



CH_3COOH kuchsiz kislota bo'lganligi uchun eritmada deyarli ionlanmagan molekular holida bo'ladi. Bundan tashqari, kislotaning ionlanishi bir xil ionli tuz ishtirokida yana ham kamayadi. Shuning uchun kislotaning ionlanmagan molekulari konsentratsiyasi uning eritmada umumiy konsentratsiyasiga teng, ya'ni $[\text{CH}_3\text{COOH}] \sim C_{\text{kisl}}$, deb qabul qilish mumkin.

Biroq CH_3COONa tuzi to'liq dissosilangan, CH_3COOH juda kam dissosilangan, demak eritmada deyarli hamma CH_3COO^- anionlari tuzning dissosilanishidan hosil bo'ladi. Tuzning bir dissosilangan molekulasiga bittadan CH_3COO^- ion bergani uchun quydagicha yozamiz:



Bularning hammasini hisobga olib, sirka kislotaning ionlanish konstantasi tenglamasidan $[\text{H}^+]$ ning qiymatini aniqlaymiz:

$$K = \frac{[\text{H}^+][\text{CH}_3\text{COO}^-]}{[\text{CH}_3\text{COOH}]}$$

$$[\text{H}^+] = K_{\text{CH}_3\text{COOH}} \frac{[\text{CH}_3\text{COOH}]}{[\text{CH}_3\text{COO}^-]}$$

yoki

$$[\text{H}^+] = K_{\text{kisl}} \frac{C_{\text{kisl}}}{C_{\text{tuz}}}$$


Bu tenglamani logarifmlab, ishoralarini teskarisiga almashtirsak:

$$-\lg[\text{H}^+] = -\lg K_{\text{kisl}} - \lg \frac{C_{\text{asos}}}{C_{\text{tuz}}}$$

yoki

$$\text{pH} = \text{p}K_{\text{kisl}} - \lg \frac{C_{\text{kisl}}}{C_{\text{tuz}}}$$

bo'ladi. Bu erda $\text{pH} = -\lg[\text{H}^+]$, $rK_{\text{kisl}} = -\lg K_{\text{kisl}}$ kislota kuchli ko'rsatkichi. Endi kuchsiz asoslar bilan ulartuzlarining aralashmasini ko'rib chiqamiz. Masalan,



Bunda NH_4OH ning ionlanish konstantasi tenglamasi:

$$K_{\text{NH}_4\text{OH}} = \frac{[\text{NH}_4^+][\text{OH}^-]}{[\text{NH}_4\text{OH}]}$$

Bu tenglamadan $[\text{OH}^-]$ ning qiymatini topamiz:

$$[\text{OH}^-] = K_{\text{NH}_4\text{OH}} \frac{[\text{NH}_4\text{OH}]}{[\text{NH}_4^+]} = K_{\text{asos}} \frac{C_{\text{asos}}}{C_{\text{tuz}}}; [\text{OH}^-] = K_{\text{asos}} \frac{C_{\text{asos}}}{C_{\text{tuz}}}$$

Bu tenglamani ham logarifmlab, ishoralarini teskariga almashtirsak:

$$-\lg[\text{OH}^-] = -\lg K_{\text{asos}} - \lg \frac{C_{\text{asos}}}{C_{\text{tuz}}}$$

yoki

$$\text{pOH} = pK_{\text{asos}} - \lg \frac{C_{\text{asos}}}{C_{\text{tuz}}}$$

Lekin, $\text{pH} + \text{pOH} = 14$ bo'lgani uchun $\text{pH} = 14 - \text{pOH}$ yoki

$$\text{pH} = 14 - pK_{\text{asos}} + \lg \frac{C_{\text{asos}}}{C_{\text{tuz}}}$$

Tenglamadagi nisbat $\frac{C_{\text{kisl}}}{C_{\text{tuz}}}$ yoki $\frac{C_{\text{asos}}}{C_{\text{tuz}}}$ lar 1/10 yoki 10/1 ga teng

bo'lishi mumkin. Undan $\text{pH} = pK_{\text{asos}} + 1$ yoki $\text{pOH} = 14 - pK_{\text{kisl}} + 1$ bo'ladi.

Bufer ta'siri yuqori bo'lishi uchun bufer aralashmadagi kislota va uning tuzi yoki asos va uning tuzining konsentrasiyalari yuqori bo'lishi kerak (1 M gacha).

SHu formulalar bilan hisoblashga bir necha misollar ko'rib Chiqaylik.

1 -misol . $\text{CH}_3\text{COOH} + \text{CH}_3\text{COONa}$ bufer aralashmada har bir moddadan 0,1 molg'dan bor, shu aralashmaning pH ini hisoblang, Bu pH 1 l aralashmaga: a) 0,01 molg' HCL; b) 0,01 molg' NaOH qo'shilganda va aralashmani suv bilan 100 marta suyultrilganda qanday o'zgarishshsh ko'rsating.

Echish: Sirka kislota uchun $pK_{kisl}=4,76$ ekan, bunday holda

$$\text{pH} = pK_{\text{CH}_3\text{COOH}} - \lg \frac{C_{\text{CH}_3\text{COOH}}}{C_{\text{CH}_3\text{COONa}}} \quad \text{yoki} \quad \text{pH} = 4,76 - \lg \frac{0,1}{0,1} = 4,76$$

Agar bu aralashmaning 1 litrga 0,01 molg' HCL qo'shilsa, u holda 0,01 molg' CH_3COONa shuncha molg' miqdordagi CH_3COOH ga aylanadi. Demak, 1l 0,1 M CH_3COOH eritmasiga 0,01 molg' NaOH qo'shilsa, H^+ ionlarining konsentrasiyasi $0,1-0,01=0,09$ g-ion/l gacha kamayadi.

Agar 1 l 0,1 M CH_3COONa eritmasiga 0,01 molg' NaOH qo'shilsa.

0,1:0,01=0,11 g-ion/l;

bundan

$$\text{pH} = 4,76 - \lg \frac{0,11}{0,09} = 4,76$$

Xuddi shunga o'xshash 1l eritmaga 0,01 molg' NaOH qo'shilsa, CH_3COOH shuncha molg' miqdordagi CH_3COONa ga aylanadi.

Bundan:

$$\text{pH} = 4,76 - \lg \frac{0,09}{0,001} = 4,84$$

Nihoyat, eritmani 100 marta suyultrsak:

$$\text{pH} = 4,76 - \lg \frac{0,001}{0,001} = 4,76$$

ya'ni, bufer aralashmalariga oz.miqdorda kislota yoki ishqor qo'shilganda, shuningdek, eritma suyultrilganda ular pHni deyarli o'zgartirmay saqlab qoladi.

2- misol. $\text{NH}_4\text{OH} + \text{NH}_4\text{Cl}$ bufer aralashmasi tarkibida har bir moddadan 0,1 molg'dan bor, shu aralashmaning pHi nimaga teng? a) 1l aralashmaga 0,01 mol NaOH qo'shilganda: b) 1l aralashmaga 0,01 molg' HCL qo'shilganda; v) aralashma suv bilan 10 marta suyo'l-tirilganda pH qanday o'zgaradi?

Echish: Yuqoridagi tenglamaga binoan"

$$\text{pH} = 14 - \text{pOH} = 14 - pK_{\text{NH}_4\text{OH}} + \lg \frac{C_{\text{NH}_4\text{OH}}}{C_{\text{NH}_4\text{Cl}}}$$

yoki

$$\text{pH} = 14 - 4,76 + \lg 0,1 = 9,25$$

0,01 molg' HCL qo'shilganda $C_{\text{NH}_4\text{OH}}$ qiymati kamayib, 0,09 *M ga* teng bo'lib qoladi. $C_{\text{NH}_4\text{Cl}}$ qiymati esa ortib boradi va 0,11 *M ga* etadi.

Demak,

$$\text{pH} = 14 - 4,75 + \lg \frac{0,09}{0,11} = 9,15$$

1 l aralashmaga 0,01 molg' NaOH qo'shilganda pH quydagicha bo'ladi:

$$\text{pH} = 14 - 4,75 + \lg \frac{0,09}{0,11} = 9,33 \text{ Eritma 10 marta suyultrilganda}$$

$$\text{pH} = 14 - 4,75 + \lg \frac{0,01}{0,01} = 9,25 \text{ bo'ladi.}$$

Mustaxkamlash va nazorat uchun savollar.

1. Massalar ta'siri qonunining analitik kimyodagi ahamiyati nimada ?
2. Bufer eritmalar qanday xossalarga ega ?
Kislotali, ishqoriy bufer eritmalar va ularning analizdagi ahamiyati qanday ?
3. Bufer eritmaning pH va bufer sig'imi nimaga bog'liq ?
4. Ammoniyli bufer eritmaning $[\text{H}^+]$ xisoblash formulasini keltirib chiqaring.
5. Eritmada $[\text{H}^+] = 10^{-6}$ Bu eritmada $[\text{OH}^-]$ qanchaga teng?
Eritmaning pH va pOH ni toping?
6. Asetat bufer eritmasiga HCl, NaOH dan o'rtacha miqdorda qo'shilgandagi jarayon mexanizmini tushuntirib bering.

4- ma'vzu

Mavzu: Miqdoriy analizning mexiyati va uning usullari.

Reja.

1. Miqdoriy analiz xaqida tushuncha.
2. Ximiyaviy analiz usullari.
3. Fizikaviy va ximiyaviy analiz usullari.
4. Elektr ximiyaviy analiz usullari.
5. Fizik analiz usullari.
6. Cho'ktirishga asoslangan usullar.
7. Mustaxkamlash va nazorat uchun savollar.

Tayanch iboralar: Ximiyaviy analiz, Fizik-ximiyaviy analiz, Titrimetrik analiz, spektral analiz, Absorbsiya, Adsorbsiya, Xromatografiya, radiometrik analiz, Atom-absorbsion analiz, potensiometrik metod.

Muammoli savollar.

1. Miqdoriy analizning mexiyati nimadan iborat?
2. Kimyoviy analizda qanday fizik metodlar qo'llaniladi?
3. Atom-absorbsion metodning mexiyati nimadan iborat?
4. Gravimetrik analiz usuli nimaga asoslangan?

Miqdoriy analiz xaqida tushuncha.

Analitik kimyoning ishqoriy analiz bo'limi tekshirilayotgan modda tarkibini miqdor jixatdan o'rganadigan metodlar majmuasidan iborat.

Bu metodlar yordamida ayrim birikmalar tarkibidagi elementlar yoki aralashma, qotishma va eritmalar tarkibidagi birikmalar miqdorini aniqlash mumkin. Bioximiya, agrokimyo, tuproqshunoslik, o'simlik va xayvonlar fiziologiyasi fanlari miqdoriy analiz bilan Chambarchas bo'g'liq.

Analitik kimyo va xususan miqdoriy analiz fanda va ishlab chiqarishda katta ahamiyatga ega. Ishlab Chiqarish jarayonining xamma bosqichlarida injiner-texnolog ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarning sifat va miqdoriy tarkibini bilishi zarur. Bunga analitik kimyo yordam beradi.

Texnolog analiz natijasiga qarab xom- ashyodan samarali foydalanishi, texnologik jarayonda yuz bergan kamchiliklarni yo'qotishi, shu bilan birga yaroqsiz maxsulotlar chiqishga yo'l qo'ymasligi kerak.

Miqdoriy analiz natijalari, odatda, foiz bilan ifodalanadi. Masalan, kalg'siy karbonat analiz qilinganda uning tarkibida necha foiz kalg'siy, necha foiz kislorod borligini ko'rsatadi.

Miqdoriy analiz usullari umuman ikkita guruxga bo'linadi: *kimyoviy analiz va fizik-kimyoviy analiz*.

ximiyaviy analiz metodlar.

Ximiyaviy analiz metodlariga quyidagilar kiradi:

1. Tortma (gravimetrik) analiz.
2. Xajmiy (titrimetrik) analiz.
3. Gaz analizi.



Tortma (gravimetrik) analiz.

Bu metod juda kadimdan ma'lum va u etarli darajada aniq natijalar beradi, lekin uni bajarish uchun ko'p vaqt sarif bo'ladi.

Quyidagi tartibda analiz qilinadi.

1. Tekshirilayotgan modda namunasi analitik tarozida tortiladi.
2. Namuna eritmaga o'tkaziladi.
3. Cho'ktiriladi.
4. Cho'kma filtrlab eritmadan ajratiladi.
5. Cho'kma doimiy massagacha ko'ritiladi.
6. Tortiladi.
7. Cho'kma massasiga ko'ra zaruriy komponentning miqdoriy xisoblab topiladi.

Miqdoriy analiz xam sifat analizida qo'llaniladigan ionlar reaksiyasidan foydalaniladi. Masalan, agar xlorning (to'g'rirogi xlorid ionining) miqdoriy aniqlash kerak bo'lsa, u eritmadan kumush ionini ta'sirida cho'ktiriladi:



Moddadagi xlor miqdorini turli usullar bilan aniqlash mumkin. Xlor miqdoriini tortma analiz usulida aniqlash uchun tekshirilayotgan modda namunasi analitik tarozida tortiladi, so'ngra namuna eritmaga o'tkaziladi va unga kumush tuzining biror eritmasini ta'sir ettirib,

xlorid ion kam eriydigan birikma xolida cho'ktiriladi. Cho'kmaning massasini bilgan xolda zaruriy komponentning foiz miqdori hisoblab topiladi.

Masalan, 0,0536 g NaCl ga AgNO₃ eritmasi ta'sir ettirilganda 0,1290 g cho'kma tushgan. AgNO₃ ning bir gramm molekulasida (ya'ni 143,3 g) bir gramm atom (ya'ni 35,46 g) xlor borligini nazarga olib, shunday yozish mumkin:

143,3 g AgCl tarkibida 35,46 g, xlor bor

0,1290 g AgCl tarkibida x g, xlor bor

$$X = \frac{0,1290 \times 35,46}{143,3} = 0,03193 \text{ g}$$

Xlorning topilgan miqdorining xammasi avval analiz uchun tortib olingan osh tuz NaCl ning tarkibida ekanligini nazarga olib, osh tuzidagi xlorning foiz miqdorini hisoblash oson:

0,0536 g NaCl da — 0,03193 g/xlor bor
100 g NaCl da — X g xlor bor

$$X = \frac{0,03193 \times 100}{0,0536} = 59,6\%$$

Reaksiya (1) asosida xlori boshqa usul, titrlash usuli bilan xam aniqlash mumkin. Bunda Cl⁻ ionlarini cho'ktirish uchun konsentratsiyasi ma'lum bo'lgan reaktivdan qancha sarflanganiga qarab, namunadagi xlor miqdorini aniqlanadi.

Xajmiy analiz.

Klassik metodlardan biri hisoblangan xajmiy analiz reaksiyaga kirishayotgan eritmalar xajmini ulchashga asoslangan. Ulardan birining konsentratsiyasi ma'lum bo'lib, ikkinchi eritmaning konsentratsiyasi titrlash asosida hisoblanadi. Xajmiy analizda tarkibi tekshirilayotgan eritmaga reaktiv eritmasidan ekvivalent miqdorda kuyiladi. Ularning ekvivalentlik nuqtasi indikatorlar yordamida yoki boshqa usulda aniqlanadi.

Masalan: Sarflangan aniq konsentratsiyali ishqor eritmasini xajmini bilgan xolda tekshirilayotgan eritmadagi kislota konsentratsiyasini hisoblab topish mumkin.

Ularning ekvivalentlik nuqtasi indikator (fenolftalein) yordamida aniqlash mumkin.

Xajmiy analiz usulining muxim afzalligi shundaki, bu analizni bajarish uchun 15-20 minut vaqt talab qilinadi (tortma analiz uchun 5-6 soat vaqt sarflanadi). Shuning uchun amalda, masalan, ishlab-chiqarishni kimyoviy nazorat qilishda xajmiy analiz katta ahamiyatga ega.


Gaz analizi.

Texnologik jarayonlarni nazorat qilib turishda gaz analizi metodidan keng foydalaniladi. Bu metodning asil mohiyati shundan iboratki, gazlar aralashmasi maxsus

reaktiv eritmasi orkali o'tkazilganda ayrim komponentlarning eritmaga yutilishi tufayli gazlar aralashmasining xajmi kamayadi. Ana shunga asoslanib aralashmadagi bahzi gazlarning % miqdori aniqlanadi.

Masalan: Gazlar aralashmasi tarkibidagi SO₂ miqdor ma'lum xajmdagi gazlar aralashmasini NaOH eritmasi bilan aralashtirib chayqatish yo'li bilan aniqlanadi. Bunda ishqor eritmasi SO₂ gazini to'liq yutadi.

Reaksiya quyidagi tenglama bo'yicha ketadi:



Birok ximiyaviy metodlar xamisha sanoatni nazorat qilishda kelib chiqadigan talablarni kondira olmaydi. Ximiyaviy metodlarning sezgirligi kichik bo'lganligi uchun turli obyektlar tarkibidagi juda kam miqdor elementlarni aniqlab bo'lmaydi.

Bundan tashkari tortma analiz metodini bajarish uchun ko'p vaqt sarflanadi. Xajmiy analizni esa loyka yoki rangli moddalar mavjud eritmalar sharoitida qo'llash mumkin emas. Shuning uchun xam xozirgi davrda juda sezgir analizni o'tkazish davri qisqa bo'lgan metodlar yaratishga ko'p e'tibor berilmoqda. Bu jixatdan fizikaviy va fizik-ximiyaviy metodlar katta samara bermoqda.

Fizik-ximiyaviy analiz usullari.

Texnikaning jadal rivojlanishi moddani tekshirish usullariga tobora yangi talablar kuymoqda. Keyingi vaqtlarda atom materiallari sanoatining paydo bo'lishi va jadal rivojlanishi, Shuningdek, kattik, olovbardosh va boshqa maxsus pulat xamda qotishmalar ishlab chiqarishning usishi analitik usullar sezgirligini 10⁻⁵—10⁻⁸ % gacha oshirishni takozo etmoqda.

Nixoyatda toza moddalar ishlab chiqarish va ishlatishda moddaning asosiy massasini tashkil qiluvchi katta miqdordagi elementlar ishtirokida ayrim elementlarning ulg'tramikromiqdorlarini aniqlashga to'g'ri keladi. Masalan, yarimo'tkazgichli elektron asboblari tayyorlash uchun ishlatiladigan . germaniy tarkibida kushimchalar miqdori 10⁻⁷% dan oshmasligi kerak.

Fizik-ximiyaviy analiz usullarida aniqlanuvchi komponentlarni moddani boshqa tarkibiy kismlaridan ajratishga ko'pincha extiyoj bo'lmaydi, Shuningdek indikatorlar xam ishlatilmaydi. Bu usullarning yana bir afzalligi ularning tezkorligi, nixoyatda sezuvchanligi va tanlovchanligidir. Bularning xammasi ishlab chiqarishni jadallashtirish, ish unumdorligini oshirish, maxsulot sifatini yaxshilash, texnologik jarayonlarni to'g'ri boshqarishda katta ahamiyatga ega.

Keyingi vaqtlarda yarim o'tkazgichlar sanoatining rivojlanishi munosabati bilan moddalarning tozalik darajasiga va analiz usullarining sezgirligiga tobora katta talablar kuyilmoqda.

Ma'lumki, kimyoviy jarayonlarni boshqarish, avvalo, qayta ishlanuvchi moddalar va reaksiya maxsulotlarining konsentrasiyalarini ulchash xamda rostlash orkali amalga oshiriladi. Neftni qayta ishlash zavodlarida, polietilen, sintetik spirt ishlab chiqaruvchi zavodlarda, boshqa kimyoviy korxonalarda analizatorlarning signallari elektron xisoblash mashinalariga yunaltiriladi, ular berilgan programma bo'yicha barcha ishlab chiqarish jarayonlarini boshqaradi. Kimyoviy analiz amaliyotida avtomatlashtirilgan xromatograflar, spektrometrlar va boshqa analizatorlar mustaxkam urin olgan. Keyingi vaqtlarda namuna va reagentni suyuq tashuvchi okimga kiritib, ingichka naylar orkali detektorga o'zatadigan asboblari yaratildi. Bular okim-injeksion analizatorlar (*ONA*) deb ataladi. Yaqin vaqtlarga kadar texnik maxsulotlar tarkibida 10^{-4} — 10^{-5} % miqdorida bo'ladigan kushimchalar e'tiborga olmasa xam bo'ladigan «asari» sifatida karalar va begona moddalarningbunday miqdorlari sanoatda xamda ko'pchilik ilmiy-tadkikot ishlarida asosiy moddani ishlatishga halaqit bermas edi. Xozirgi texnika uchun esa anchagina toza moddalarni ishlatish talab etiladi. Masalan, polietilen olish uchun foydalanuvchi etilenda kushimchalar (suv, kislorod) miqdori 10^{-40} % dan ortmasligi zarur, aks xolda polietilening unumi keskin pasayib ketadi.

Neft va gaz geokimyoviy kidirishlarda xavodagi uglevodorodlarning 10^{-5} gacha miqdorlari aniqlanadi. Polimetall konlarini gidrokimyoviy izlash tabiiy suvning 1litrida bor-yo'g'i bir necha mikrogramm, ya'ni 10^{-7} % konsentrasiyada mis, ko'rgoshinlar borligini aniqlashga asoslangan.

E'tibor bering:

Fizik-kimyoviy analiz usullarining xatoligi klassik usullarinikiga nisbatan kattarak bo'lib, 2-5 % ni tashkil qiladi. Ammo shuni e'tiborga olish kerakki, klassik usullarda fizik-kimyoviy usullardagiga nisbatan modda katta konsentrasiyalarda bo'lishi talab etiladi. Aniqlanuvchi komponentning miqdori kam bo'lganida (10^{-3} % va kamroq) analizning klassik usullaridan umuman foydalanib bo'lmaydi.

Shunga qaramay, analizning kimyoviy usullari o'z axamiyatini yo'qotmagan.. Xususan modda miqdori ko'p bo'lganida, tekshirish yuqori aniqlikni talab etganda xamda vaqt bemalol bo'lganda (masalan, tayyor maxsulotlar analizida, talonlar tayyorlashda) kimyoviy analiz usullari beqiyosdir.

Fizik-kimyoviy analiz usullarining muxim kamchiligi ularda etalonlar va standart eritmalarning (namunalarning) zarurligidir. Analizning to'g'ri chiqishi ularning sifatiga, tarkibi qay darajada ma'lumligiga va ular tarkibi jixatidan tekshiriluvchi namunaga naqadar yaqinligiga to'la bo'g'liq bo'ladi.Sanoat, fan va xalq xo'jalik tarmoqlarining rivojlanishi analitik kimyoning takomillashgan analiz usullarini topishni talab qiladi.

Modda tarkibidagi 10^{-6} — $10^{-7}\%$ va undan ham oz bo'lgan qoldiqlarning miqdorini aniqlab berish bazan muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, raketa texnikasida materiallar tarkibidagi taqiqlangan deb ataluvchi qo'shilmalar (Cd, Rdva boshqalar) $10^{-5}\%$ dan ko'p bo'lmasligi, atom texnikasida qurilma material sifatida ishlatiladigan sirkoniy tarkibida gafniy miqdori 0,01% dan kam bo'lishi, yarim o'tkazgich materiallari esa $10^{-11}\%$ ortiq bo'lishi kerak.

Sirkoniy sanoatda foydali material sifatida yaroqsiz deb hisoblangan, chunki uning o'zi tezgina radioaktivlanib qolardi; keyinchalik nurlangan sirkoniy emas, balki oddiy sirkoniyning yo'ldoshi gafniy ekanligi aniqlandi. Hozirgi vaqtda gafniy qo'shilmagan sirkoniy ajratib olish usullari topildi va atom sanoatida samarali qo'llanilmoqda.

Ko'pgina sanoat tarmoqlarida qo'shilmalarning $10^{-6}\%$ va undan oz miqdorni aniqlash oddiy ish bo'lib qoldi. Chunki shu miqdordagi qo'shilmalarning bo'lishi ham mahsulotni sifat darajasini ko'rsatadi. Keyingi vaqtlarda bunday vazifalar atom-absorbsion spektroskopiya va rezonans, kinetik analiz va bir qator boshqa usullar bilan hal qilinmoqda. Xozir analitik kimyo ancha tszkor, aniq, avtomatlashgan, moddani parchalamay va ajratmay analiz qila oladigan fan tarmog'iga aylanib qoldi.

Fizik-kimyoviy analiz usullarining yana bir muhim afzalligi analizni masofada o'tkazish imkonidadir. Misol tarzida Oy tuprog'ini lunoxod ichiga o'pnatilgan rentgenoflyuoessent moslama vositasida bevosita tekshirishni, - Venera (Zuhra) atmosferasiii tekshirishni keltirish mumkin. Er sharoitida yuqori radioaktivlikka ega bo'lgan zaharli moddalarni, shuningdek, katta chuqurlikdagi suvlarni tekshirishda hamda shunga o'xshash masalalarni echishda masofadan analiz o'tkazish amaliy ahamiyatga ega.

Fizik-kimyoviy analiz usullaridan ishlab chiqarishni nazorat qilishda, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda keng foydalaniladi. Fizik-kimyoviy analiz usullarida ishlatiluvchi ko'pchilik asboblari analiz jarayonini yoki uning bosqichlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Bu usullarda tekshiriluvchi obektlarning tarkibi haqidagi ma'lumotlarni EHM tomonidan qabul qilinuvchi elektr yoki optik signallar tarzida olish mumkin. Avtomatik gaz analizatorlari shaxtalardagi havo tarkibini nazorat qilib turadi. Metallurgiya sanoatida yuqori darajada avtomatlashtirilgan optik va rentgen kvantomerlar keng qo'llaniladi.

Xozirgi analitik kimyoni koordinasiyalangan birikmalarni o'rganish, kvant kimyosi usullari va modda tuzilishi nazariyalari, kinetik reaksiyalarsiz tasavvur etish mumkin emas.

Bu fanlarning yutuklaridan foydalanish analitik kimyoni boyitdi, uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga analitik kimyo bu fanlarning rivojlanishiga, xalq xo'jaligining butun soxalarini kengaytirishga va uning yangidan-yangi yutuqlari bilan ulkan xissa qushadi. Analitik kimyo usullaridan foydalanib fizika va qattik jismlar kimyosi metallurgiya katalizatorlarini o'rganish soxalarida katta yutuqqa erishdi.

Shuni xam aytib utish kerakki, analitik sintez va analiz bir-biri bilan mustaxkam bog'langandir.

Kimyo analizida, ko'pincha, sintez qilingan moddaning rangiga, eruvchanligiga, kristallarining o'ziga xos shakliga qarab xam xo'losa chiqariladi.

Sintez natijalari xar doim analiz bilan tekshirib borilishida xam analiz va sintez birligi ko'rinadi.

Asosiy fizik-kimyoviy analiz usullari.

Analiz usullari	Usul qanday xodisaga asoslangan	O'lchalinadigan ' qiymat (xossalari)
1	2	3
Elektr-kimyoviy:	Sistemalarda elektr parametrlarining o'zgarishi	
Elektr-grafimetriya	Elektrolizda moddalarning elektrodda ajralishi	Ajralib chikkan moddaning massasi
Potensiometriya	Kimyoviy reaksiya natijasida sistemada elektrod potensialining o'zgarishi	Elektrod potentsiali
Koduktometriya	Kimyoviya reaksiya jarayonida eritma elektr o'tkazuvchanlaganing . o'zgarishi	Elektr o'tkazuvchanligi, elektr qarshiligi
Polyarogrifiya	Elektrodning qutblanishi	Tok kuchli, kuchlanish
Optik usullar:	Moddanint o'zaro ta'sirida elektro-magnit nurlanishi	
Emission spektral analiz	Yuqori temperatura ta'sirida spektr nurlarining chiqishi	Spektr chizishning xolati va intensivligi
Lyuminesent analiz	Moddaning ulg'trabinafsha nur ta'sirida nurlanishi	Nurlanish intensivligi
Rentgen spektroskopiya	Rentgen nuri ta'sirida atomdan rentgen spektrining chiqishi	Sepktr chiziishing intensivligi va xolati
Atom-absorbsion Spektroskopiya	qo'zg'altirish manbaidagi Monoxramatik nurlanishning atomda yutilishi	Yutilish intensivligi


Absorbsion spektrfotometriya, fotometriya, kolorimetriya, Fotokolorimetriya	Eritmada bo'lgan ion va molekulalar poli va monoxromatik nurlanishni yutishi	Eritmaning optik zichligi
Turbidimetriya	Gomogen bo'lmagan muxitda nur okimining yutilishi va tarkalishi	Muxitning optik zichligi
Nefelometriya Refraktometriya	Gomogen bo'lmagan muxitda nur okimining tarkalishi va qaytarilishi Nurning moddada sinishi	Muxitning optik zichligi Sinish koeffisienti
Radiometrik usullar:		
Radioaktivasion	Moddani yadro Zarrachasi bilan nurlantirishda elementning turg'un Izotopi radioaktivligining O'zgarishi	Radioaktivligi
Izotop bilan Suyultrish	Nishonli radioaktiv izotop ta'sirida birikma solishtirma aktivligini o'zgarishi	Radioaktivligi
Massa-spektral analiz	Elektr va magnit maydonning qo'shma ta'sirida atom, molekula, ionlar , ionlanishi natijasida massa	Spektr signali va intensivligining xolati

YAdro-magnit rezonans (YAMR) usuli	yadro magnetizm ta'sirida yamr spektr chizishning Doimiy magnit maydonda moddalarning elektromagnit nurlanishining rezonans yutishi	yamr spektr chizig'ining intensivlik signali, Xolati
---------------------------------------	---	--

OPTIK ANALIZ USULLARI

Optik analiz metodlari tekshirilayotgan moddaning optik ko'rsatkichlarini ulchashga asoslangan. Tekshirilayotgan moddaning atom va molekulariga ta'sir etuvchi elektromagnit nurlanish yutilishi, sochilishi va qaytishi mumkin. Ana shu o'zgarishlardan birortasi yordamida tekshirilayotgan moddaning tarkibi xaqida xo'losa chiqariladi. Juda ko'p izlanishlarda: qishloq xo'jaligida, agrokimyoda, turli xil obektlardagi: tuproq, o'simlik mikroelementlar, miqdorini analiz qilishda kolorimetrik analiz keng qo'llaniladi. Kolorimetrik analiz sezgirlik va analiz o'tkazish uchun kerakli vaqtning qisqaligi bilan boshqa metodlardan farq qiladi. Kolorimetrik analiz metodida aniqlanishi zarur bo'lgan komponent rangli birikmaga o'tkaziladi. Xosil bo'lgan rangning intensivligidan foydalanib, aniqlangan komponentning miqdori tugrasiida xo'losa qilinadi.

Masalan: Biologik obekt tarkibidagi Fe^{+3} kationi miqdorini aniqlash uchun temir (III) ioni eritmaga o'tkaziladi va unga NH_4CHS eritmasidan kuyiladi.



Xosil bo'lgan kompleks ionlar eritmani qizil qon rangga kiritadi, Tekshirilayotgan eritmalar tarkibidagi elementlar miqdorini aniqlash uchun eritma rangini intensivligini «standart» eritmalar rangining intensivligiga solishtirish zarur. Standart eritmalar maxsus tayyorlanadi va ularni tarkibida aniqlanayotgan elementning konsentrasiyasi aniq bo'ladi. Eritmalarning rangini solishtirishda fotoelementdan xam foydalanish mumkin. Bu usul fotokolorimetrik usul deb ataladi. Bunda elektr lampochkadan chiqayotgan nur tekshirilayotgan eritma orqali o'tib fotokolorimetriyani fotoelementga tushadi. Xosil bo'lgan elektr tokining kuchi yordamida eritma rangining intensivligini aniqlanadi.

OPTIK USULLAR: EMISSION SPEKTR ANALIZ ALANGA SPEKTROFOTOMETRIYASI ATOM ABSORSION METOD LYUMINESSENT ANALIZ FOTOKOLORIMETRIK USUL TURBIDIMETRIYA

ATOM-ABSORBSION METOD

Bu metod Bunzen va Kirxgof tomonidan 1860 yilda analiz uchun qo'llanilgan bo'lganligiga qaramasdan 1945 yildan keyingina keng ko'lamini topdi. Bu metodni analitik maqsadlarda qo'llashni Uolsh 1955 yilda taklif qildi. Xozirgi kunda dunyoning juda ko'p laboratoriyalarida tuproq, suv va o'simliklarni mikroelement tarkibini aniqlashda keng qo'llanilmoqda.

Moxiyati: Atom-Absorbsion spektral analiz element atomlarini dastlabki xolatidan ko'zg'algan xolatga o'tish vaqtida yutgan nur miqdorini tulqin uzunlikda yutilmasdan ular xar bir atomning o'ziga xos ko'zg'ata oladigan tulqin uzunlikda yutiladi. Bunda analiz qilishni zarur bo'lgan modda shu darajada qizdiriladiki, unda ximiyaviy birikmalar parchalanib erkin atomlar xolatiga keladi. Moddaning ana shu erkin atomlar bug'i nur yutuvchi muxit bo'lib xizmat qiladi. Yutuvchi muxit xosil qilishda analiz qilinayotgan

.namunani atomizasiyalashning bir qancha yo'llari bor. Bulardan eng oddiy va qulayi eritmani alangada bug'latishdir. Alanga temperaturasi (2000-3000 K) ko'plab elementlar birikmalarning buglanishi va to'liq parchalanishi uchun etarlidir. Nupning yutilish qiymati xuddi molekulyar spektroskopiyadagi singari Lambert-Ber qonuni bilan aniqlanadi.

$$J = J_0 \cdot e^{-K_0 C l} \quad (1)$$

Bu erda: J-moddadan utayotgan nur intensivligi

J_0 -tushayotgan nur intensivligi

K_0 -Chastotaga bo'g'liq bo'lgan nupning yutish koeffitsienti

C- yutayotgan komponent konsentrasiyasi.

l- nup yutayotgan qatlam uzunligi

Atom-absorbsion ulchashlar amaliyotda optik zichlik degan kattalikdan foydalaniladi. U quydagi formula bilan ifodalanadi:

$$D = \ln \frac{J_0}{J}$$

(1) formulani xisobga olib, (2) formulani quydagicha yozish mumkin.

$$J_0$$

$$D = \ln \frac{J_0}{J} = -K_0 C l \quad (3)$$

$$J$$

Bundan ko'rinib turibdiki, eritmaning optik zichligi yutish koeffitsientiga ya'ni elementning shu eritmadagi konsentrasiyasiga to'g'ri proporsional.. Demak, aniq konsentrasiyali standart eritmaning optik zichligini noma'lum eritmaning optik zichligini bir-biriga solishtirib undagi izlanayotgan element miqdorini qiyinchiliksiz xisoblash mumkin. Lekin amaliyotda tarkibi noma'lum bo'lgan eritmaning optik zichligini aniqlanishi zarur bo'lgan elementning aniq konsentrasiyasiga bo'g'liq kiymatni topish oson emas. Bu ayniqsa atom-absorbsion metodning alanga variantida ancha murakkab ish. Uning aniq qiymati birinchi navbatda optik zichligi aniqlanishi zarur bo'lgan namunani ximiyaviy tarkibiga bo'g'liq, ya'ni eritmaning ximiyaviy tarkibi murakkab bo'lsa, u ayni mikroelementning aniq konsentrasiyasini ulchashga xalaqit beradi. Buni oldini olish uchun tadqiqotni maxsus usullaridan foydalaniladi.

Esda saqlang!

Atom-absorbsion usulining ko'pchilik turlarida tekshiriluvchi namunaning avval eritmaga o'tkazish talab etiladi. Eruvchilar sifatida suv, mineral kislotalar. ularning aralashmalari, organik eruvchilar va boshqalardan foydalaniladi. barcha xollarda xam tarozida tortib olingan namunadagi aniqlanuvchi elementni eritmaga o'tkazish talab etiladi.

Xisoblash.

Namunalar eritmasida mikroelementlar konsentrasiyasi darajalangan grafiklar yordamida xisoblanadi. Bunday grafiklar optik zichlik (D) va konsentrasiya (C) bog'lanishida tuziladi, ya'ni

$$D = \ln \frac{J_0}{J}$$

Noma'lum eritmadagi mikroelement konsentrasiyasi C quydagi formula bilan xisoblab topiladi.

$$C = \frac{D(D_1 - D_2)}{D_1 - D_2}$$

Bu erda D_1 -tekshirilayotgan eritmaning optik zichligi.

D_2 -kontrol eritmaning optik zichligi.

D va C standart eritmaning optik zichligi va konsentrasiyasi.

Standart optik zichlik aniqlanadigan eritmani optik zichligiga solishtirish bilan uning konsentrasiyasi xisoblanadi.

$$m = \frac{\gamma \cdot Da \cdot Va}{Dc \cdot n} \cdot 1000 \text{ (mg/kg)}$$

Bu erda:

γ standart eritma konsentrasiyasi.

Da -aniqlanadigan eritmaning optik zichligi.

Ds -standart eritma optik zichligi.

Va - aniqlanadigan eritmaning keltirilgan xajmi.

p - miqdor (gr), yoki $m = \frac{mkg}{ml} \cdot \frac{Va}{n} = 1000 \text{ (mg/kg)}$

Atom- absorbsion metod xozirgi paytda eng keng tarqalgan sezgir aniq ishlash prinsipiga ega va texnikasi jixatdan sodda metod xisoblanadi. Shuning uchun xam xozir metallurgiyada biologik obektlarda va boshqa ko'p obhektlarda 70 ga yaqin elementlarni aniqlashda atom-absorbsion metoddan muvaffaqiyat bilan foydalanilmoqda,

Elektr ximiyaviy analiz usullari.

Tekshirilayotgan modda tarkibidagi aniqlanayotgan moddaning elektro ximiyaviy xususiyatlaridan foydalaniladigan bir qancha metodlari mavjud:

1. Potensiometrik
2. Konduktometrik
3. Polyarografik
4. Elektrogravimetrik (elektroliz)

Elektro-kiyoviy usullari tekshirilayotgan eritmada sodir bo'ladigan elektro-kimyoviy xodisalarning elektr-kimyoviy parametrlarini o'lchashga asoslangan.

1.Potensiometrik metod- eritmaga tushirilgan elektrodda vujudga keladigan potensialni ulchashga asoslangan. Potensialning kattaligi eritmada ionlar konsentrasiyasiga to'g'ri proporsional bo'ladi.

2.Konduktometrik metod- temperaturaning ma'lum qiymatida eritmada elektrolit konsentrasiyasi bilan eritmaning elektr o'tkazuvchanligi orasidagi ooglanishga asoslangan. Odatda eritmaning konsentrasiyasi qancha yuqori bo'lsa uning elektr o'tkazuvchanligi shuncha katta bo'ladi.

Z.Polyarografik analiz metodi: tekshirilayotgan eritmani elektroliz qilishga asoslangan. Bunda poliyarografdan foydalaniladi. Poligraflar avtomatik ravishda volt-amper bog'lanishini chiza oladi.

4.Elektrogravimetriya metodi- aniqlanayotgan elementni edektroliz yordamida elektrod yuzasida Cho'ktirishga asoslangan. Bunda elektrod yuzasi tozalanadi va uning massasi ulchanadi, so'ngra tekshirilayotgan eritmaga tushiriladi,elektrodlarga o'zgarmas tok beriladi, elektroliz tugagandan so'ng elektrodning massasi yana aniqlanadi.


Elektrod massalarining farqidan foydalanib eritmada element (yoki modda) miqdori to'g'risida xo'losa chiqariladi. Elektr toki bunda cho'ktiruvchi "reaktiv" vazifasini o'taydi. CHo'kish elektrodlardan bittasida ro'y beradi. Elektrodlarda metallar (masalan: Cu, Ag, Au, Hg va xokazo) oksidlar (masalan: RO₂) va kam eruvchan tuzlar (masalan: AgCl) cho'kishi mumkin.

Xromatografik analiz usullari.

Xromatografiya modda aralashmalarini ularni tashkil etuvchi komponentlarga ajratishning fizik-kimyoviy metodi bo'lib, u adsorbent (yutuvchi) larning turli moddalarni tanlab adsorblashga asoslangan.

Adsorbsiya metodi rus olimi M.S.Svet tomonidan 1903 yilda kashf etilgan.

Xromatografik analiz metodlari



Adsorbsion xromatografiya bir yoki bir necha moddaning eritmalaridan molekulalararo kuchlar ta'sirida ayrim ionlarning tanlab adsorbsiyalanishga asoslangan. Analiz qilinayotgan. eritma xromatografik kolonkadan mayda adsorbent donalari bilan tuldirilgan shisha naydan o'tkaziladi.

Kolonkaning pastki qismi ingichka va unda shisha jumrak yoki qisqichli rezina nay bo'ladi. Analizda byuretkadan yoki maxsus xromatografik kolonklardan foydalanish mumkin. Adsorbentlar sifatida aktivlangan ko'mir, ishqoriy er metallarning Shuningdek, magniy, alyuminiy va shu singari metallarning oksidlari va gidroksidlari, silikagel kabilar ishlatiladi.

Fizik analiz usullari.

Miqdoriy analizda fizik analiz metodlaridan *radiometrik*, *mass spektrometrik* analizlardan keng qo'llaniladi.

Radiometrik analiz.

Tekshirilayotgan modda tarkibidagi radioaktiv elementdan Chikayotgan nurlanishni ulchashga asoslangan. Unda aralashma tarkibidagi radioaktivlik xususiyatiga ega bo'lgan izotoplar miqdori aniqlanadi.

Radioaktiv izotoplarni aniqlashda ularning yarim emirilish davridan yoki chiqarilayotgan nurlanish energiyasidan foydalaniladi. Miqdoriy analiz praktikasida radioaktiv izotoplar *a*, *B*, *u* nurlanishlari aktivligini o'lchash usulidan foydalaniladi. Radiometrik analiz metodlarining aniqlik darajasi taxminan + 5 - 20 % (nisbiy xato) ga teng, ya'ni aniqligi ximiyaviy analiz metodlarnikidan past. shunga qaramasdan radiometrik metodlar kam miqdordagi elementlar uchun eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biridir.

Radioaktivasion analiz.

Bu usul hozirgi paytda keng qo'llaniladi. Bu metodning mohiyati quydagidan iborat: elementning barqaror (radioaktivmas) izotopi atom reaktorlarida nurlantirish yo'li bilan radioaktiv xolatga o'tkaziladi. So'ngra uning radioaktivligini O'lchash yo'li bilan modda tarkibidagi elementning miqdori xaqida xo'losa chiqariladi.

Masalan: ^{12}C protonlar bilan nurlanganda azotning radioaktiv izotopi ^{13}N xosil bo'ladi va uning emirilish davri 9,93 minutga teng, u o'zidan pozitronlar Chiqarib nurlanadi.

Mass-spektrometriya.

Mass-spektrometriya metodi elektr yoki magnit maydoni ta'sirida xosil bo'lgan ionlangan atom va molekula yoki radikal oqimlarning massasini aniqlashga asoslangan. Ajratilgan zarrachalar oqimining turiga qarab bu metod:

1. Mass-spektrometriya
2. Mass-spektrografiya ajratiladi.


Birinchi xolda zarrachalarni qayd etish, elektr, ikkinchi xolda esa fotografiya yordamida amalga oshiriladi. Bu usullarda analizni o'tkazish uchun mass-spektro yoki Mass-spektrograflardan foydalaniladi.

CHO'KTIRISHGA ASOSLANGAN USULLAR

Cho'ktirish metodida titrlash jarayonida ayrim qiyin eriydigan birikmalar xosil bo'ladigan reaksiyalardan foydalaniladi. Xajmiy analizda bunday reaksiyalarning bahzilaridagina foydalanish mumkin va ular bir qator shartlarga rioya qilishi kerak:

- A) cho'kma amalda erimaydigan bo'lishi zarur;
- B) cho'kma etarli darajada tez xosil bo'lishi kerak;
- S) Birgalashib cho'kish singari omillar analiz natijasiga ta'sir etmasligi lozim;
- D) Titrlash vaqtida ekvivalent nuqtani belgilash uchun imkoniyat bo'lishi kerak.

Ushbu talablar xajmiy analizda qo'llanilishi mumkin bo'lgan reaksiyalar sonini juda kamaytirib yuboradi. Kumushning qiyin eriydigan tuzlarini quydagi tenglama bo'yicha cho'ktirish reaksiyalariga asoslangan metodlar ayniqsa . muxim ahamiyatga ega:



Bu erda: Ag^+ , Cl^- , Vg^- , J^- , CNS^- va boshqa anionlar ko'rsatilgan.

Bu reaksiyaga asoslangan metodlar xajmiy analizning argentometriya bo'limini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda, galogenlar qiyin eruvchan simob (I) xlorid Hg_2Cl_2 va simob (I) iodit Hg_2I_2 xolda cho'ktirish orqali xam aniqlanadi. Bu metod merko'rometriya deb ataladi.

Mustaxkamlash va nazorat uchun savollar.

1. Miqdoriy analizning moxiyati nimadan iborat?
2. Analizning qaysi metodlari kimyoviy reaksiyalar vaqtida sodir bo'ladigan fizik xossalarni ko'zlashga asoslangan?
3. Optik analizning metodi asosida nimalar yotadi?
4. Elektr kimyoviy analiz usullarining moxiyati nimadan iborat?
5. Kimyoviy analizda qanday fizik usullar qo'llaniladi?
6. Atom-absorbsion usulning moxiyati nimadan iborat?
7. Xromotografik analiz usuli nimaga asoslangan?
8. Xromotografik analiz usuli kaerda qo'llaniladi?
9. Spektral sifat analizi nimaga asoslangan?
10. Miqdoriy analizning fizik va fizik-kimyoviy usullari xaqida nimalar bilasiz?

5-ma'vzu

MAVZU: TORTMA ANALIZ.

REJA.

1. Tortma analizning moxiyati .
2. Tortim miqdorini tanlash.
3. Tekshirilayotgan modda tortimini eritish.
4. Cho'ktirish.
5. Filtrlash va cho'kmani yuvish .
6. Cho'kmani quritish va qizdirish .
7. Tortma analizdagi xatolar .
8. Tortma analizdagi xisoblashlar .
9. Mustaxkamlash va nazorat uchun savollar .

Tayanch iboralar .

Tortma analiz, cho'ktirish , absalyut xato, nisbiy xato, elektrogravimetriya , xaydash usuli , cho'ktiruvchi reagent.

Muammoli savol:

1. Gravimetrik analiz usuli nimaga asoslangan?
2. Cho'kmalar xosil bo'lishida qanday omillar ta'sir qiladi?
3. Kristall cho'kmalarga qanday talablar qo'yiladi ?

1 .TORTMA ANALIZNING MOXIYATI.

Tortma analiz qilinayotgan moddaning tortib olingan muayyan miqdoridan ma'lum tarkibiy qismini tegishli ximiyaviy reaksiyalar vositasida erimaydigan cho'kma ko'rinishida ajratib olishga asoslangan. Bu cho'kma eritmadan filtrlab olinadi , begona aralashmalardan yuvib tozalanadi va qizdirilgandan yoki quritilgandan so'ng analitik torozilarda tortiladi. So'ngra cho'kmaning og'irligi bo'yicha shu tarkibiy qismning miqdori xisoblab topiladi .

Tortma analizda tarkibiy qismni erkin xolatda ajratib olishga faqat bazan muvaffaq bo'linadi xolos . Odatda tarkibiy qismni suvda erimaydigan biror birikma tarzda ajratib olishga va uning og'irligidan tarkibiy qismining o'z og'irligini xisoblashga to'g'ri keladi . Masalan , bariy ionini tortma usulda aniqlashda u sulfat ionlari bilan cho'ktiriladi .Bu reaksiya natijasida xamma bariy ionlari erimaydigan tuz bariy sulfat xolida cho'kmaga tushadi . Xosil bo'ladigan tuz bariy sulfat miqdoriga qarab aniqlanadi .

Tortma analiz bir qancha prosesslarni o'z ichiga oladi :

- 1) O'rtacha namuna olish va moddani analizga tayyorlash :
- 2) Analiz uchun namuna tortib olish :
- 3) Uni eritish:
- 4) Cho'ktirish :
- 5) To'liq cho'kkanligini tekshirish:
- 6) Cho'kmani filtrlash :
- 7) Cho'kmani quritish va qizdirish :
- 8) Analiz natijalarini xisoblash.

Gravimetrik analizda cho'ktirish usuli muxim ahamiyatga ega . Bu usul kimyoviy reaksiya natijasida elementni biror qiyin eruvchan aniq tarkibli birikma tarzida cho'ktirib , xosil bo'lgan cho'kma massasini aniq tortishga asoslangan .

Kimyoviy usullardan tashqari ,fizik - kimyoviy analiz usullari - elektrogravimetriya va termogravimetriya ham keng qo'llaniladi .

Elektrogravimetriya usuli aniqlanayotgan elementni modda eritmasini elektroliz qilish natijasida elektrod yuzasida ajralib chiqqan metallning massasini tortishga asoslangan . Bunda elektrod yuzasi tozalanib ,massasi o'lchanadi , so'ng tekshirilayotgan eritmaga tushiriladi . Elektrodlar o'zgarmas tokka ulanadi . Elektroliz tugagandan so'ng elektrodning massasi yana aniqlanadi .Elektrod massasining elektrolizdan oldingi va keyingi qiymatidagi farqdan foydalanib , eritmada element (yoki modda) miqdori to'g'risida xo'losa chiqariladi .Bu usuldan deyarli faqat metallarni (masalan Cu , Cd , Ag ,Ni, Co va b)aniqlashda foydalaniladi .

2. TORTIM MIQDORINI TANLASH .

Tortim analiz uchun kerakli modda miqdoridir . Tortim miqdori qancha ko'p bo'lsa , elementning nisbiy aniqlanish darajasi shuncha ishonchli bo'ladi . Ammo tortim miqdorining ko'p bo'lishining salbiy tomonlari ham bor, ya'ni cho'ktirish prosessida xosil qilingan cho'kmani filtrlash qiyinlashadi ,uni yuvish yoki qizdirish uchun ko'p vaqt ketadi. Aksincha, tortim miqdori kam bo'lsa namunani tarozida tortishda va boshqa operatsiyalarda yo'l qo'yiladigan kichik chetlanish sezilarli xatoga olib keladi . Shunday qilib tortim miqdori analiz davomidagi cho'ktirish prosessida hosil bo'ladigan cho'kma miqdoriga qarab tanlanadi . Masalan: diametri 7smli qog'oz filtrdan foydalanib kristall xolatdagi 0,5 g $VaSO_4$ ni osongina filtrlash mumkin . Tortim massasi xosil bo'ladigan cho'kmaning va aniqlanayotgan elementning taxminiy miqdorini xisobga olgan xolda belgilab olingan .

Tortim miqdori xisoblab chiqilgach ,modda dastlab texno- ximiyaviy tarozida , so'ngra analitik tarozida tortiladi . Bunda avval bo'sh byuksning (yoki soat oynasining) so'ngra modda solingan byuksning massasi aniqlanadi va ikkala natija ayirmasidan moddaning massasi topiladi yoki avval modda solingan byuksni tarozida tortib , so'ngra ichidagi moddani boshqa stakanga solib byuks yana tortiladi va ikkala natija eritmasidan tortim massasi aniqlanadi .

3. TEKSHIRILAYOTGAN MODDA TORTIMINI ERITISH .

Agar tekshirilayotgan modda suvda eruvchan bo'lsa ,byuks yoki soat oynasidagi modda tortimi 200-300 ml sig'imli stakanga solinadi va imkoni boricha ozroq miqdor distillangan suvda eritiladi . Tezroq eritish uchun stakandagi modda stakan og'zini soat oynasi bilan berkitgan xolda ,sekin qizdiriladi . Stakandagi aralashmani qattiq qaynatishga yo'l qo'ymaslik uchun asta sekin qizdiriladi .

Tekshirilayotgan modda suvda erimaydigan bo'lsa uni kislota da (sirka , xlorid, nitrat , sulfat , kislotalarda) yoki zar suvida (1 xajm nitrat va 3 xajm xlorid kislota) eritiladi .

E'tibor bering !

Tortimni eritish uchun qanday kislota olinishi kerakligi eritiladigan modda bilan kislotaning o'zaro ta'sirlashuviga ko'ra belgilanadi . Masalan ,oxaktoshni eritish uchun sulfat kislota emas , xlorid kislota olish kerak , aks xolda kam eruvchan kalsiy sulfat xosil bo'ladi .

Tortimni eritish uchun mos eruvchi tanlashning iloji bo'lmasa modda natriy gidroksid , natriy karbonat yoki kaliy karbonat bilan birgalikda suyuqlantiriladi so'ngra xosil bo'lgan qotishma distillangan suvda eritiladi . Eritmadagi ortiqcha kislota neytrallanadi ,analizga xalal beruvchi ionlar yo'qotiladi va xokazo .

Esda saqlang!

Tegishli reagent ta'sirida eritmadan cho'kmaga tushadigan modda shakli gravimetrik analizda cho'ktiriladigan shakl deyiladi .

4.CHO'KTIRISH .

Miqdori aniqlanadigan element yoki birikmani qiyin eriydigan modda xolida cho'ktirish tortma analizda eng muxim operasiya xisoblanadi . Tushadigan cho'kma tarkibi shu ion uchun cho'ktirish shakli deb ataladi . Modda ximiyaviy stakanda cho'ktiriladi. cho'ktirishni to'g'ri amalga oshrish uchun cho'ktiruvchini to'g'ri tanlash uni kerakli miqdorda olish cho'ktirish qoidalariga to'liq rioya qilish cho'kish to'liq amalga oshganligiga ishonch xosil qilish kerak .

Cho'kmalar amorf va kristall bo'lishi mumkin . Amorf cho'kmalar , masalan temir (III) gidroksid va boshqalarning yuzasi katta bo'ladi , shuning uchun ular eritma tarkibidagi begona aralashmalarni ko'p miqdorda

adsorbilaydi . Ular yaxshi filtrlanmaydi va yuvilmaydi ,bundan tashqari ular osonlikcha kolloid xolatga o'tadi .

Mayda kiristall cho'kmalar filtrlashda filtratdan o'tib ketishi mumkin ,bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi . Tortma analizda xosil qilingan cho'kmalar quyidagi talablarga javob berishi mumkin .

1. Ular amaliy jixatdan erimaydigan bo'lishi kerak (eritmada erigan moddadan 0,1 mg dan ko'p qolmasligi kerak) .

2. Amaliy jixatdan toza ,ya'ni aralashmalarsiz bo'lishi kerak

3.Cho'kma imkoni boricha yirik kiristal xolida va eritmadan osonlikcha ajralib Chiqadigan bo'lishi kerak .




4. Quritiladigan yoki qizdirilgandan so'ng cho'kma muayyan ximyaviy formulaga ega va barqaror bo'lishi kerak .

Cho'ktiruvchi asta sekin eritmani shisha tayoqcha bilan to'xtovsiz aralashtirib turgan xolda qo'shiladi . Shisha tayoqcha ichiga o'zunligi 2-3mm li rezina naycha kiygiziladi. Eritmani aralashtirilayotganda rezina naycha eritmaga tegmasligi lozim. stakan devoridagi cho'kma yuqlari shu rezina uchlik yordamida olinadi ,lekin uni eritmaga botirib qo'yish yaramaydi . cho'ktirish uchun reaktivning stakaning ichki devori bo'yicha yoki tayoqcha bo'ylab qo'yiladi , shundagina uning sachrashiga yo'l qo'yilmaydi . To'liq cho'ktirish uchun cho'ktiruvchidan salgina ortiqcha qo'shiladi . Cho'ktiruvchidan ko'p qo'shib yuborish cho'kmaning kompleks birikmalar xosil bo'lishi tufayli erib ketishiga va birgalikda cho'kish (adsorbsiya) natijasida ifloslanib qolishiga olib keladi . Ionlarni eritmadan amaliy jixatdan to'liq cho'ktirish uchun cho'ktiruvchini bir yarim barobar ko'p quyish kerak . Cho'ktiruvchi eritmasi menzurkada o'lchab olinadi .

Va^{2+} ionini aniqlashda cho'ktiriladigan shakl $BaSO_4$,

Ag^+ kumush ionini aniqlashda $AgCl$,

Fe^{3+} temir ionini aniqlashda $Fe(OH)_3$ bo'ladi.



5. FILTRLASH VA CHO'KMANI YUVISH.

Cho'kmani eritmadan filtrlash va uni yuvish yo'li bilan ajratiladi.Filtrlash uchun qo'lsiz filtrlar deb ataladigan filtrlar ishlatiladi . Ular qizdirilganda shunchalik kam qo'l xosil bo'ladiki ,uning og'irligi xisobga olinmaydi .

Filtrlar diametri xamda zichligi jixatdan bir-biridan farq qiladi. Zichligi eng kam bo'lgan tez filtrlaydigan filtrlar amorf cho'kmalar uchun mo'ljallangan . Bunday filtrlar pachkasi o'ramining ustiga qora va qizil lenta chizilgan bo'ladi . Zichligi o'rtacha filtrlar (oq lentali) ko'pchilik kristall cho'kmalar uchun mo'ljallangan . Eng zich filtrlar (ko'k lentali) mayda kristall cho'kmalar uchun mo'ljallangan .

Filtrlashdan oldin filtr buklanadi va burchagi 60^0 bo'lgan voronkaga solinadi . Filtrli voronka shtativ xalqasiga o'rnatiladi va uning tagiga filtratni yig'ish uchun stakan quyiladi . Filtrlashdan oldin cho'kmali stakaning tumshug'iga tashqi tomondan ozgina vazelin surtiladi .

Cho'kma ustidagi teshik suyuqlik filtrga shisha tayoqcha bo'ylab quyiladi . Filtrlanayotgan suyuqlik stakan devori bo'ylab tushmasligi kerak . Cho'kma ustidagi suyuqlik xammasi quyilgandan so'ng ,stakanda qolgan cho'kma dekantasiya yo'li bilan yuviladi . Cho'kma suvda bilinarli darajada eriydigan bo'lsa , uning eruvchanligini pasaytirish uchun yuvgichdagi suyuqlikka cho'ktiruvchi ion qo'shiladi .

Yuvilgan cho'kma filtrga o'tkaziladi . cho'kma filtrga batamom o'tkazilgandan so'ng va suyuqlikning xammasi stakanga oqib tushgandan so'ng ,filtrdagi Cho'kmani yuvishga kirishiladi .

Filtrdagi cho'kmaning taxminan yarim suyuqlikka botgach suyuqlikning filtrdan o'tib ketishi kuzatiladi . Cho'kma chayindi suvlarda begona ionlar topilmaydigan bo'lguncha yuviladi .

Cho'kma toza suv bilan yuvilganda uning bir qismi erib ketishi xisobiga yo'qolishi mumkin . Yuvish kolloid eritmalar xosil bo'lishiga va gidrolizga imkon beradi .

Dekantasiyada cho'kmani filtrga o'tkazishda va uni yuvishda juda qunt bilan ishlash talab qilinadi . Suyuqlikning bir tomchisi xam yo'qotilmasligi kerak , chunki u bilan birga cho'kma xam qisman yo'qotilishi mumkin .

6. CHO'KMANI QURITISH VA QIZDIRISH .

Cho'kmani yuvishdan so'ng suvning silkib tushishi uchun filtr bir oz qo'yib qo'yiladi va so'ngra voronka bilan birga bir necha minut quritish shkafiga qo'yiladi . Quritishda filtratga chang tushmasligi uchun voronka ustiga filtr qog'oz yopilib qog'ozning chetlarini voronka atrofida bukib qayriladi . Filg'trni kuydirish keyingi mashg'ulotda bajariladigan bo'lsa , uni quritish shkafida quritish shart emas , chunki uy xaroratidayoq qurib qoladi .

So'ngra keyingi ish uchun zarur bo'ladigan tigelni tayyorlash lozim . Tigelni tayyorlash ishlari cho'kmani cho'ktirish, filtrlash va yuvish bilan parallel ravishda bajariladi. Tigelni yuviladi va qizdirish uchun 25-30 minutga

mufel pechga qo'yiladi . Qizigan tigel eksikatorga o'tkaziladi . Tigel xona temperaturasi kelgandan so'ng u analitik tarozida tortiladi . Shundan keyin tigel yana qizdiriladi va sovutiladi . Bu operatsiya tigelni massasi o'zgarmay qolguncha o'tkaziladi .

Cho'kmali tigelni chinni uchburchakka o'rnatib u shtativ xalqasiga quyiladi va tigel gorelka alangasida extiyotlik bilan qizdiriladi. Filtpning alangalanmasdan asta sekin ko'mirlanishga imkon berib kuzatib turish lozim , chunki aks xolda cho'kma zarrachalari uchib ketishi mumkin . So'ngra tigel mufel pechda muayyan temperaturada qizdiriladi. Shundan so'ng eksikatora sovutiladi va batamom sovugandan keyin tortiladi .

Qizdirish , sovutish va tortish cho'kmali tigelni og'irligi o'zgarmay qolguncha takrorlanadi .

7. TORTMA ANALIZDAGI XATOLAR.

Tekshirilayotgan modda tarkibidagi elementlarni aniqlash prosessi birin ketin bajariladigan bir qancha bosqichdan iborat , bunda namuna ajratib olishda tortimni tarozida tortishda cho'ktirish yoki filtrlashda yoki cho'kmani yuvishda xatoliklarga yo'l qo'yish mumkin. Bunday xatoliklar doimiy va tasodifiy bo'lishi mumkin .

Doimiy xatolar qo'llaniladigan analiz metodi bilan bog'liq sabablar bilan tushuntiriladi. Shuning uchun ular avvaldan xisobga olinadi va xisoblash paytida formulaga tuzatish kiritiladi yoki xatolikni chetlab o'tish choralari ko'riladi . Doimiy xatolarning ayrim turlari bilan tanishib chiqamiz .

Barcha xatolar miqdoriy reaksiyaning to'liq amalga oshmasligi cho'kmaning qisman erishi yoki uning qizdirilishi prosessida sodir bo'ladigan kamchiliklar tufayli vujudga keladi . Bunday xatolar metodik xatolar deyiladi va ularni tugatish juda qiyin .

Operativ xatolar analiz o'tkazayotgan studentning maxoratiga va analitik operatsiyalarning qanchalik diqqat bilan bajarilganligiga bog'liq . Bunday xatolar cho'kmani etarli darajada yuvmaslikda yoki xaddan tashqari ko'p yuvish , cho'kmani normadan ortiq temperaturasi tenglashib ulgurmagan cho'kmani tarozida tortish oqibatida kelib chiqadi . Analiz o'tkazishda operatsiyalarni to'g'ri va puxta bajarib operativ xatolarni kamaytirish mumkin.

Doimiy xatolarning sabablaridan biri tarozilarning nosozligi va reaktivlarning ifloslanganligi bo'lishi mumkin .

Tasodifiy xatolarning sabablarini oldindan bilib bo'lmaydi .Ularni vujudga kelishiga quritish shkafi yoki mufel pech temperaturasi keskin o'zgarishi , tekshirilayotgan eritmaga yot qo'shilmalarning tasodifan tushishi kabilar sabab bo'ladi . Tasodifiy xatolarning oldini olish yoki analiz natijasiga ko'rsatuvchi ta'sirini kamaytirish maqsadida 2ta paralel analiz o'tkaziladi . Bunda bir biriga

yaqin natijalar olinadi va ularning o'rtacha arifmetik qiymati analiz natijasi sifatida qabul qilinadi .

Miqdoriy analizda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolar absolyut va nisbiy xatolarga ajratiladi .

Absolyut xato analiz natijasida elementning topilgan miqdori bilan tekshirilayotgan modda tarkibidagi elementning xaqiqiy miqdori orasidagi farqni ifodalaydi .


Nisbiy xato absolyut xatoning qiymatini analiz natijasida olinishi zarur bo'lgan qiymatga nisbati bilan aniqlanadi . Olingan natijani 100ga ko'paytirib nisbiy xato prosentlarda ifodalaniladi .

TORTMA ANALIZDAGI XISOBLASHLAR .

Analiz natijasida olingan ma'lumotlar olingan modda massasiga nisbatan prosent xisobida ifodalanadi . Buning uchun tekshirilayotgan modda namunasining massasini ,xosil bo'lgan cho'kma massasini va uning ximiyaviy formulasini aniq bilish kerak .

Ayrim xollarda elementlarning prosent miqdoriga asoslanib tekshirilayotgan modda asosini tashkil etuvchi moddaning ximiyaviy formulasi keltirib chiqariladi . Boshqa xollarda texnik maxsulot tarkibidagi asosiy komponent miqdori aniqlanadi . Masalan, sotishga chiqarilgan bariy xlorid tarkibidagi $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ miqdori yoki Ba^{2+} ioni miqdori aniqlanadi . Bu ikkala xol uchun analizni o'tkazish tartibi bir xil , ammo analiz natijasida xisoblash tartibi xar xil bo'lishi mumkin . Buni misollarda ko'rib chiqamiz .

I- misol. Texnik bariy xlorid tarkibidagi sof $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ miqdorini aniqlash. Tortim miqdori 0,5956g. Qizdirishdan so'ng olingan BaSO_4 cho'kmasining massasi 0,4646g. Echish. Analiz o'tkazish quydagi reaksiya tenglamasiga asoslangan :



Analiz paytida xosil qilingan 0,4646g BaSO_4 cho'kmasiga mos keluvchi $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ miqdorini xisoblab topamiz.

244,30g $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ dan 233,40g BaSO_4 xosil bo'ladi x g $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ dan 0,4646g BaSO_4 xosil bo'ladi .

$$X = \frac{244.30 \cdot 0.4646}{233.40} = 0,4862\text{g } \text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$$

Analiz uchun olingan texnik bariy xlorid tarkibidagi sof $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ miqdorini prosentlarda ifodalaymiz .

0,5956g texnik bariy xlorid 100%ni tashkil etadi .

0,4852g sof $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ x %ni tashkil etadi .

$$X = \frac{0,4862 \cdot 100}{0,5956} = 81,83\%$$

Demak texnik bariy xlorid tarkibida 81,83% sof $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ bor ekan .

2-misol. Ximiyaviy toza $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ tarkibidagi Ba^{2+} ioni miqdorini aniqlang. $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ namunasining tortimi 0,4872g, qizdirishdan so'ng olingan BaSO_4 cho'kmasining massasi 0,4644g.

Echish. Avvalo xosil qilingan 0,4644g BaSO_4 tarkibidagi Ba^{2+} (uning atom massasi 137,4g) ioni miqdorini xisoblaymiz :

233,40g BaSO_4 tarkibidagi 137,40g Ba^{2+} bor
0,4644g BaSO_4 tarkibida x g Ba^{2+} bor.

$$X = \frac{0,4644 \cdot 137,4 \cdot 40}{233,40} = 0,2733\text{g}.$$

Analiz uchun olingan sof $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ tarkibidagi Ba^{2+} ionining prosent miqdorini xisoblaymiz.

0,4872g toza	$\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$	100% ni tashkil etadi
0,2733g toza	$\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$	x% tashkil etadi .

$$X = \frac{0,2733 \cdot 100}{0,4872} = 56,09\%$$

Demak sof $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ tarkibida 56,09% bariy xlorid mavjud ekan .

Agar aniqlanayotgan element yoki ion olingan namuna xolida emas , balki boshqa xolatda aniqlanayotgan bo'lsa , tortma analizdagi natijalarni xisoblashlar paytida qayta xisoblash faktorlaridan foydalaniladi . Qayta xisoblash faktori F aniqlanadigan modda atom (yoki molekulyar) masasining cho'kmadagi moddaning molekulyar massasiga nisbati bilan aniqlanadi :

$$F = \frac{\text{aniqlanayotgan moddaning atom(yoki molekulyar) massasi}}{\text{Cho'kmadagi moddaning molekulyar masasi}}$$

Qayta xisoblash faktori I g cho'kmada aniqlanayotgan moddadan qancha borligini ko'rsatadi . Konkret xollar uchun qayta xisoblash faktori quydagicha topiladi .

Aniqlanadigan Element yoki Birikma	Xosil qilingan cho'kma (tortiladigan shakl)	Qayta xisoblash faktori
Ba	BaSO ₄	A_{Ba}/M_{BaSO_4}
Fe	Fe ₂ O ₃	$2A_{Fe}/M_{Fe_2O_3}$
FeO	Fe ₂ O ₃	$2M_{FeO}/M_{Fe_2O_3}$
MgO	Mg ₂ P ₂ O ₇	$2M_{MgO}/M_{Mg_2P_2O_7}$

Bariy aniqlanayotgan bo'lsa, cho'kma va tarozida tortiladigan namuna BaSO₄ formulaga ega bo'lsa, qayta xisoblash faktori ya'ni analitik ko'paytuvchi quydagicha topiladi:

$$\Phi = \frac{A_{Ba}}{M_{BaSO_4}} = \frac{137,40}{233,40} = 0,5887$$

Qayta xisoblash faktorining qiymati spravochniklarda berilgan. Analiz natijalarini xisoblashda qayta xisoblash faktorining qiymati inobatga olingan tayyor formuladan foydalaniladi:

$$X\% = \frac{\Phi^*B}{A} \cdot 100\%$$

Bunda

a-tekshirilayotgan modda tortimi massasi ,g,

v- tortiladigan namuna massasi ,g,

F-qayta xisoblash faktori .

Ushbu formuladan xamda 2-misolda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, BaCl₂ · 2H₂O tarkibidagi bariyning prosent miqdorini xisoblab topish mumkin:

$$X = \frac{\Phi^*B}{A} \cdot 100\% = \frac{0,5887 \cdot 0,4644}{0,4872} \cdot 100\% = 59,09\%$$

Demak. tayyor formuladan foydalanilganda xisoblash ancha osonlashadi. Analiz natijalarini laboratoriya jumhaliga tartib bilan analiz qachon o'tkazilgani, Chislosi

,analizning nomi, aniqlash metodikasi , o'lchash va tarozida tortish natijalari , analiz natijalarini xisoblashni yozib borish kerak.

MUSTAXKAMLASH VA NAZORAT UCHUN SAVOLLAR .

1. Tortma analiz metodining mohiyati nimadan iborat.
2. Moddaning analizga tayyorlash uchun nimalar qilmoq kerak.
3. Cho'ktirishning to'liq to'liqmas bo'lishi qanday omillarga bog'liq .
4. Dekantasiya nima .
5. Tortma analizda hosil qilingan Cho'kma qanday talablarga javob berishi kerak.
6. Ximiyaviy toza $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ tarkibidagi Ba^{2+} ioni miqdorini aniqlang. $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ namunasining tortimi 0,6872g qizdirishdan so'ng olingan BaSO_4 Cho'kmasining massasi 0,6452g.
7. Analitik tarozining sezgirligi nimalarga bog'liq .
8. Cho'kmani quritish va qizdirishda nimalarga e'tibor berish kerak.
9. AgCl ning cho'kmasiga mo'l HCl qo'shilsa qanday effekt ko'zatiladi.
10. Tortma analizdagi xisoblashlarda nimalarga e'tibor berish kerak.

6-ma'vzu

Mavzu : Xajmiy analiz . neytrallash metodi .

reja

1. xajmiy analiz mohiyati
2. xajmiy analiz meodlari xaqida tushincha.
3. xajmiy analizda eritmalar konsentrasiyalarini ifodalash.
4. titrlashni asosiy koidalari
5. xajmiy analiz natijalarini xisoblash.
6. netrallash metodlarini asosiy tamoillari .
7. netrallash metodlarida ishlatiladigan indikatorlar.
8. Mustaxkamlash va nazorat uchun savollar.

tayanch iboralar: Standart eritma , titrlash ko'rsatkichi, ekvivalent nuqta, normallik, netrallash metodi, titrlash egri chiziqlari.

MUAMMOLI SAVOLLAR.

1. Xajmiy analiz mohiyati nimadan iborat?
2. neytrallash usulini mohiyati nimadan iborat?
3. Titrlash metodida qanday standart titrlangan eritmalar ishlatiladi?

1. Xajmiy Analizning Moxiyati.

Xajmiy yag'ni titr metrik analizda reaksiyaga kirishayotgan modalarning aniq xajmi ulchanadi, va ulardan birini mag'lum konsentrasiyasi asosida ikinchisining nomag'lum konsentrasiyasi aniqlanadi. Konsentrasiyasi mag'lum bo'lgan va uning yordamida boshqa eritmadagi moddaning miqdori aniqlangan eritma titrlangan yoki standart ishchi eritma deyiladi.

1.ml eritmadagi erigan moddaning grammlar xisobidagi ogirlik miqdori shu eritmani titri deyiladi. Masalan, natriy gidroksid eritmasini titri 0,001895 ga teng bo'lsa, bunday eritmaning xar biri millilitrida **0,001895** gramm natriy gidroksid lar bo'ladi. Xajmiy analizning eng muxim operatsiyalaridan biri titri aniq ishchi eritmani konsentrasiyasi aniqlanishi kerak bo'lgan modda eritmasiga asta sekin qo'shish yani titrlashdir. Eritmalarni titrlash ikkala eritmadagi erigan moddalarning o'z aro ekvivalent miqdorini topish demakdir. Titrlashning qo'shilgan reaktiv miqdori aniqlanayotgan modda miqdoriga ekvivalent bo'lgan payt ekvivalent nuqta deb ataladi.

Ekvivalent nuqtani aniqlash eritma rangini o'zgarishiga titrlanayotgan eritmani fizik -kimyoviy xossalari o'zgarishiga yoki indikatorlar qo'llanishiga asoslanadi. Titri aniq ishchi eritmani sarflangan xajmi va konsentrasiyasiga asoslanib analiz natijasi xisoblanadi. Ekvivalent nuqtani aniqlash uchun fenolftaleindan foydalaniladi, chunki eritma bir tomchi ortiqcha natriy gidroksid ta'siridan xam qirmizi ranga kirishi mumkin.

Kislota eritmalarida esa fenolftalein rangsiz bo'ladi. Masalan natriygidroksid eritmasini titri 0,001895 gramm bo'lib ekvivalent nuqtaga erishguncha undan 9,50 ml sarflansin. Bundan ravshanki reaksiya uchun sarflangan gidroksidning miqdori **0,001895 · 9,50 = 0,0180025** gr.

Xajmiy analizlar tez va oxirigacha boradigan analizlardir. Bunday eritmalar o'rtasidagi reaksiyalarning oxiriga borishi, ularni tashqi belgisi bilan aniq bilinib turishi yoki birorta usul bilan oson qayd qilinadigan bo'lishi kerak.

Titrimetrik analiz torma analizga nisbatan bir muncha afzalliklarga ega. Xajmiy analizda tortma analizdagiga nisbatan tezrok natija olinadi. Ammo xajmiy analizdagi natijalarni aniqligi tortma analizga qaraganda bir muncha kam bo'ladi.


2. Xajmiy analiz metodlari xaqida tushuncha.

Titrimetrik analizda turli xil reaksiyalar: kislota-asosli birikish, oksidlanish-qaytarilish cho'ktirish, kompleks hosil bo'lishi va boshqa reaksiyalar qo'llaniladi. Bu reaksiyalar titrimetrik analiz shartlarini qanoatlantirishi kerak. Ayrim titrimetrik usullar asosiy reaksiya turining yoki titrantning nomi bilan ataladi. Argentometriya usulida AgNO_3 titrant, permanganatometriyada KMnO_4 , titrant bo'ladi va h.


Titrimetrik analizda qo'llaniladigan asosiy reaksiyaga binoan bu analiz quyldagi usullarga bo'linadi:

1. Kislota-asosli titrlash: $H^+ + OH^- = H_2O$,

2. Oksidimetriya oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi asosida titrlash:



3. Cho'ktirish usuli.





4. Kompleksonometrik usul — koordinasion (xelat) birikmalar hosil bo'lish reaksiyalaridan foydalaniladi

E'tibor bering.

Bu usullarning har qaysisi bilan aniqlashda to'g'ri, teskari titrlash, shuningdek, o'rin almashtirish yo'li bilan titrlash mumkin.

To'g'ri titrlashda aniqlanayotgan modda eritmasiga titrant oz-ozdan qo'shib boriladi. Masalan:




Teskari titrlashda ikkita titrantdan foydalaniladi. Tekshirilayotgan moddaga avval titrant 1 dan mo'l miqdorda qo'shiladi. Titrant 1 ning reaksiyaga kirishmay, ortib qolgan qismi titrant 2 bilan titrlanadi. Titrant 1 moddasi bilan reaksiyaga kirishish uchun sarf bo'lgan miqdori uning hammasi bo'lib qo'shilgan titrant miqdoridan titrlash uchun sarf bo'lgan miqdorini ayirish orqali topiladi. Masalan, eritmadagi NaCl miqdorini $AgNO_3$ eritmasi yordamida to'g'ri titrlash yo'li bilan ham, teskari titrlash orqali ham aniqlash mumkin. Teskari titrlash yo'li bilan aniqlashda NaCl eritmasiga ortiqcha miqdorda titrant


$AgNO_3$ eritmasidan qo'shiladi va uning reaksiyada ortib qolgan qismi titrant 2 — NH_4CNS eritmasi bilan titrlanadi. NaCl bilan reaksiyaga kirishgan kumush nitrat eritmasining miqdori V uning umumiy qo'shilgan miqdori V_1 dan NH_4CNS moddasi bilan

titrlangan miqdori orasidagi farqdan aniqlanadi:

$$V = V_1 - V_2$$





Ortiqcha maqlorda kumush nitrat olingan.



Kumush nitrat qoldiq.

Berilgan modda miqdorini to'g'ri yoki teskari titrlash usul-lari bilan aniqlash mumkin bo'lmasa, *almashtirib titrlash usulidan* foydalaniladi. Bunda aniqlanayotgan moddaga shunday bir modda qo'shiladiki, u reaksiya natijasida ma'lum miqdorda mahsulot hosil qiladi. Bu mahsulot mos keladigan titrant yordamida titrlanadi. Masalan, berilgan moddani aniqlashda K_2CrO_4 , KJ va HCl qo'shildi, deylik. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan J_2 ning miqdori $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$ eritmasi bilan titrlab aniqlanadi:



Neytrallash metodi neytrallanish reaksiyasiga asoslangan, bu metod eritmalaridagi kislota va ishqorlar konsentrasiyalarini aniqlashda ko'p qo'llaniladi. Shuningdek eritmadagi gidrolizlanuvchi tuzlar konsentrsiyasini aniqlashda xam neytrallash metodidan foydalanish mumkin. Eritmalardagi ishqorlar yoki suvdagi eritmalaridagi gidrolizlanish natijasida ishqoriy muxit xosil qiluvchi tuzlar konsentrasiyasini aniqlashda standart ishchi eritmalar sifatida ishqorlar eritmasi ishlatiladi. Bunday prosesslar alkalimetriya deyiladi. Neytrallash metodida ekvivalent nuqtani aniqlash uchun indikator rangini o'zgarishidan foydalanish mumkin. Indikatorlardan fenolftalien lakmus, metiloranj, ko'p ishlatiladi. Titrimetrik cho'ktirish metodlari xam turlicha nomlanadi. Bunda qanday standart ishchi eritmadan ishlatilganligi asos qilib olinadi. Masalan, ana shu maqsadda kumush nitrat eritmasidan foydalanilsa argentometriya yoki ishchi eritma sifatida NH_4CNS eritmasidan foydalanilsa rodanometriya metodi deyiladi.

Komleks xosil bo'lishiga asoslangan tirimetrik metod kam ionlanuvchi kompleks birikmalarining xosil bo'lishiga asoslangan. Titrimetrik metod yordamida turli kationlarni va anionlarni aniqlash mumkin.

Oksidlanish-qaytarilish metodlari tekshirilayotgan eritmadagi ionlar bilan standart ishchi eritma tarkibidagi ionlar bilan standart ishchi eritma tarkibidagi ionlar orasida sodir bo'ladigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga asoslanadi.

Miqdoriy analizda permanganometriya yodometriya xromotometriya kabi oksidlanish -qaytarilish metodlari ko'p qo'llaniladi

Permanganometriya. Bu metodda standart ishchi eritma sifatida kaliy permanganat eritmasi ishlatiladi. U reaksiyalarda oksidlovchi vazifasini utaydi

Yodometriya. Erkin yod ximiyaviy reaksiyalarda oksidlovchi, yod ioni qaytaruvchi sifatida ishtirok etadi. Indikator sifatida kraxmaldan foydalaniladi.


Oksidlanish-qaytarilish metodlaridan bromatometriyada KVO_3 vanadometriyada NH_4VO_3 oksidlovchilar sifatida ishlatiladi.

Z.Xajmiy analizda eritmalar konsentrasiyasini ifodalash.

Xajmiy analizda eritmalar konsentrasiyasini ifodalashda asosan normal konsentrasiyalik eritmalar foydalaniladi. Normallik 1 l eritmada bo'ladigan eruvchi moddaning g/ekv soni bilan belgilanadi. Xajmi 1 l bo'lgan 1 n eritmada 1 g ekv erigan modda bo'ladi.



Titrimetrik analizda standart ishchi eritma sifatida odatda 0,1n 0,2n konsentrasiyalik eritmalar ko'proq ishlatiladi. Normal konsentrasiyalik eritmalar tayyorlashda kislota, asos va tuzlarning ekvivalent massalarni hisoblashni bilish kerak. Moddaning g/ekv deyilganda uning ayni reaksiya davomida 1 g-atom yoki 1 g-ion vodorodga ekvivalent miqdori tushuniladi.

Masalan, ko'p asosli kislotalar ximiyaviy reaksiyalarda o'z tarkibidagi barcha yoki ayrim vodorod ionlari bilan ishtirok etishi mumkin. Ana shunday kislotalarni ekvivalenti xar xil bo'ladi.



Bunda fosfat kislotani xar qaysi molekulasida 3 molekula natriy gidroksid bilan reaksiyaga kirishib o'zining 3 ta H^+ ionini Na^+ ga almashtiradi.

Gidroksidlarning ekvivalent massalari xam ularning ximiyaviy reaksiyalarda ishtirok etishi xarakteriga bo'g'liq. Odatda ularning ekvivalent massalarini hisoblashda molekulyar massani reaksiyada ishtirok etgan gidroksil (OH) gruppalar soniga bo'g'liq.



1-xolda bariy gidroksidning ekvivalent massasi molekulyar massasiga teng bo'lsa, ikkinchi xolda molekulyar massani bo'lish orqali topiladi.

Tuzlarning ekvivalent massasini hisoblashda odatda molekulyar massani metall atomlari soni bilan ularning zaryadlari soni ko'paytmasiga bo'lish kerak.

Bu almashinish reaksiyalari uchun to'g'ri. Ammo ximiyaviy reaksiya davomida tuzning xususiyatini xam hisobga olish kerak.

Masalan:



Na_2CO_3 molekulasida 2 ta H^+ bilan ta'sirlashadi, ana shu tufayli Na_2CO_3 ning ekvivalent massasi uning molekulyar massasining % qismiga teng.

Eritma konsentrasiyasini aniqlashda ekvivalentlik nuqtasida reaksiyaga kirishayotgan eritmalarning xajmi (ml) va normalligi bir-biriga teng deb faraz qilinadi.

$$N_B \cdot V_B = N_A \cdot V_A$$

Boshqacha ayitganda, ekvivalentlik nuqtasida reaksiyaga kirishgan reaktiv va aniqlanayotgan modda eritmalarning xajmlari normalliklariga teskari proporsional bo'ladi.


$\frac{N_B}{V_A} = \frac{N_A}{V_B}$

Bu qoida ekvivalentlik qoidasi deyiladi.


4. TITRLASHNING ASOSIY QOIDALARI.

Ishqor eritmasini kislota bilan titrlash bevosita titrlashga yaqqol misol bo'ladi. Bevosita titrlash usulida aniqlanuvchi modda titrat bilan to'g'ridan-to'g'ri birikadi. Bu usul bilan analiz qilishda bitta ishchi standart eritma etarli xisoblanadi.

Qayta titrlash usulida 2 ta asosiy va yordamchi titrlangan ishchi eritmasidan foydalaniladi. Masalan, xlor ionlarini kislotali muxitda qayta titrlash keng miqyosda ma'lumdir. Analiz uchun olingan moddaga aniq miqdorda titrlangan kumush nitrat eritmasidan qo'shiladi. Buning natijasida kam eruvchi kumush xlorid cho'kmasi xosil bo'ladi.



Titrimetrik usul bilan analiz qilishning 3 asosiy usuli almashlab yoki yordamchi eritma bilan titrlash xisoblanadi. Bu usul bo'yicha aniqlanuvchi modda ustiga reaksiyaga kirishuvchi maxsus reagent qo'shiladi. Maxsulotlardan birini ishchi eritma bilan titrlanadi. Masalan, yodometrik usul bo'yicha aniqlanuvchi mis eritmasi ustiga mo'l miqdorda kaliy yodid qo'shiladi. Bunday kimyoviy reaksiya quydagicha boradi.



Ajralgan yod natriy tiosulfat bilan titrlanadi. Titrimetrik analizni yanada murakkab usullari ham bo'lib, u yuqoridagi asosiy 3 usulni birlashmasi xisoblanadi.

5. XAJMIY ANALIZ NATIJALARINI XISOBLASH.

Moddalar doimo bir-biri bilan ekvivalent miqdorda ta'sirlashadi. Xamma xisoblashlarni asosida ana shu qonuniyat yotadi. Titrlash paytida ekvivalent nuqtasiga kadar doimo bir xil ekvivalent miqdorda kislota va asos sarflanadi. O'zaro ta'sirlashuvchi moddalar eritmalarining normalligi bir xil bo'lsa tabiiyki sarflangan eritmalarining xajmlari xam o'zaro eritmadan foydalangan ma'qul, chunki normal konsentrasiyalari bir-biriga teng bo'lgan eritmalar o'zaro qoldiqsiz reaksiyaga kirishadi.

Tayyorlangan eritmalarini konsentrasiyalarini xisoblash.

Tayyorlangan eritmalarining titrini xisoblash uchun tortim massasini olingan eritma xajmiga bo'lish kerak.

$$T = \frac{N \cdot \varnothing}{1000} \text{ g/ml yoki } N = \frac{T \cdot 1000}{\varnothing} \cdot \frac{2}{\varnothing_{\text{KB}} / \text{л}}$$


Eritmani normalligini aniqlashda eritma titrini 1 normal eritmaning titriga bo'lgan nisbatidan xam foydalanish mumkin.

$$N = \frac{T}{T_1}$$

Biz yuqorida normalligi bir xil bo'lgan eritmalarini o'zaro ta'sirlashuvida ulardan teng xajm sarf bo'lishini aytib o'tgan edik. Agar eritmalarining normalligi xar xil bo'lsa, titrlash uchun yuqori konsentrasiyali eritmadan oz aksincha kichik konsentrasiyali eritmadan ko'proq sarflanadi. Demak, normal konsentrasiya eritma xajmi orasida teskari proporsional bog'lanish mavjud.

Xajmiy analiz natijalarini xisoblash. Analiz natijasi titrlanayotgan eritma tarkibidagi aniqlanayotgan modda miqdorini xisoblash va titrlanayotgan eritma konsentrasiyasini aniqlash yo'li bilan xisoblanadi.

Titrlanayotgan eritma tarkibida aniqlanayotgan modda miqdorini xisoblash. Xlor Cl^- ionining miqdorini titrimetrik usulda aniqlashda tortma analizdagi ximiyaviy reaksiyadan foydalanish mumkin.



Reaksiyada ishtirok etuvchi hlarning miqdorini aniqlashda titrlash uchun sarflangan kumush nitratning ishchi eritmasi miqdoridan foydalaniladi, chunki 1g ekv kumush nitrat tuzi 1 ekv xlor ioni bilan reaksiyaga qoldiqsiz kirishadi.

Bundan: $170 \text{ AgNO}_3 \text{ ——— } 35,5 \text{ Cl}$

$$A_2 \text{-----} X$$

$$X = \frac{A \quad 35,5}{170}$$

Titrlanayotgan eritma konsentrasiyasini aniqlash.

Eritmalar konsentrasiyasini xisoblashda yuqorida keltirilgan formuladan foydalaniladi.

$$N_B \cdot V_B = N_A \cdot V_A$$

V_B birinchi eritma xajmi

V_A ikkinchi eritma xajmi

N_B birinchi eritma normalligi

N_A ikkinchi eritma normalligi

Formuladagi biror kattalikni aniqlash zarur bo'lsa, qolgan 3 ta kattalikning qiymati ma'lum bo'lishi kerak.

6. NEYTRALLASH METODI.

NEYTRALLASH METODINING NAZARIY ASOSLARI.

Neytrallash metodi H^+ va OH^- ionlari urtasida boradigan neytrallash reaksiyasiga asoslangan, bunda kuchsiz dissosilanadigan suv molekullari xosil bo'ladi:



Neytrallash metodidan kislota va ishqorlarni, Shuningdek eritmada gidrolizlanib kislotali yoki ishqoriy muxit xosil qiladigan tuzlarni miqdoriy aniqlash uchun foydalaniladi.

Kuchli kislota yoki ishqorlarning eritmaları neytrallash metodida standart ishchi eritmalar sifatida ishlatiladi.


Agar neytrallash metodi bilan biror kislota eritmasining nomalum konsentrasiyasini aniqlash kerak bo'lsa, bu eritma ishqorning aniq titrli eritmasi bilan aksariyat xollarda 0,1 n. Na yoki KOH eritmasi bilan titrlanadi. Ishqor eritmasining konsentrasiyasini aniqlash uchun u ko'pincha 0,1 n. HCL yoki H_2SO_4 larning aniq titrli eritmasi bilan titrlanadi.

Kislota va ishqorlarning titrlangan ish eritmalarini tortim bo'yicha tayyorlash mumkin emas, chunki ular dastlabki moddalarga quyiladigan talablarga javob bermaydi. Shuning uchun ularning taxminiy konsentrasiyali ishchi eritmaları tayyorlanadi, so'ngra esa standart moddalar eritmaları bilan titrlash orqali aniq konsentrasiyasi topiladi.

Kislotalarning titrini aniqlashda standart modda sifatida bura $Na_2B_4O_7 \cdot 10H_2O$ yoki soda $Na_2SO_4 \cdot H_2O$ ishqorlar titrini aniqlashda esa oksalat kislota $H_2S_2O_4 \cdot 2H_2O$ yoki kaxrobo kislota $H_2C_4H_4O_4$ ishlatiladi.

Neytrallash metodida ishlatiladigan eng muxim indikatorlar
2—jadval.

Indikator nomi	Rang o'zgarish intervali (pH)	Pastki (pH) Chegarasiga	(pH) Chegarsidan so'ng		
	3, 1-4,4	Pushti	Indikator nomi	Rang o'zgari sh	Rangli
Metil-qizil (metilrot)	4,2 - 6,2	Qizil	Sariq	5,3	Eruvchi sifatida 90 % li spirt dan foy-dalanib tayorlangan 0,2
Neytral-qizil	6,8-8,0	Qizil	Sariq	7,4	Suvdagi 0,1 % li eritmasidan 1
Lakmus	5,0-8,0	Qizil	Ko'k	6,5	Suvdagi 0,5 % li
Fenolftalein	8,2-10,0	Rangsiz	Qizil	9,0	70% li spirt da tayyorlangan 0,5
Timolftalein	9,3-10,5	Rangsiz	Ko'k	9,9	90 % li spirgda tayyorlangan 0,1 % li eritmasidan



Tenglamaga muvofik sodir bo'ladi.

Gidroksil ionlarni biriktirib olish xususiyatiga ega bo'lgan va HJnd formulaga muvofiq keluvchi indikatorlar-kislotali indikatorlar deb ataladi. Bunday indikatorlar o'zidan H^+ kationlarini chiqarib dissosiyalanadi, ya'ni H^+ va Jnd ionlari xosil bo'ladi.


Ayrim indikatorlarning molekulari va ionlariga mos keluvchi ranglar - jadvala keltirilgan. Fenolftalein molekulari HJnd uning anioni Jnd^- bilan ifodalansa, uning dissosiyalanish tenglamasi quydagicha bo'ladi:



Rangsiz olcha rangli Bu muvozanat mavjud bo'lgan eritmaga ozgina tomizilsa, kiritilgan OH^- ionlar fenolftalein molekulasining dissosiyalanishidan xosil bo'lgan H^+ ionlarini bog'lab, kam dissosiyalanuvchi suv molekulalarini xosil qiladi. Natijada muvozanat o'ng tomonga siljiydi, eritmadagi Jnd ionlarning konsentrasiyasi ortadi va eritma olcha rangga bo'yaladi.

Aksincha, fenolftalein eritmasiga bir necha tomchi kislota eritmasidan tomizilsa, eritmada H^+ ionlarning konsentrasiyasi ortadi va muvozanat indikatorning dissosiyalanmagan molekulalari xosil bo'lish tomoniga siljiydi. Ana Shuning uchun eritma rangsizlanadi. Lakmuching eritmadagi xossalari, uning dissosiyalanmagan molekulasining qizil ranga ega bo'lishi, lakmus anionining, ko'k rangli ekanligi, neytral eritmada lakmuching oraliq binafsha rangda bo'lishi uning dissosiyalanishi bilan tushuntiriladi. Demak, indikator eritmasining rangi uning eritmadagi molekulasining xamda ionning bir-biriga bo'lgan nisbat bilan aniqlanadi. Suvdagi eritmalarda metilaranj pushti rangda, $pH < 3,1$ bo'lganda qizil $pH > 4,4$ dan katta bo'lganda sariq rangga utadi.

Indikator azogruppasidagi azotga kislotaning vodorod H^+ kationini birikishi tufayli qizil rangli ion xosil bo'ladi. Shunday qilib, metiloranj eritmasiga tomchilatib kislota eritmasi qo'shilganda uning sariq rangi qizil tusga o'zgaradi. Aksincha, indikator eritmasiga asta sekin ishqor qo'shilsa, uning rangi pushtidan sariqqa aylanadi.



Esda saqlang

Ma'lumki, eritmaga xar qanday kislota yoki ishqor eritmasidan qo'shilishi undagi H^+ ionlari konsentrasiyasini ya'ni pH ni qiymati o'zgaradi. Boshqacha aytganda, indikator rangining o'zgarishi eritma pH ning o'zgarishiga bo'g'liq.

ishq
or
yord
ami
da
seki

n neytrallansa, N^+ ionlarining konsentrasiyasi asta sekin kamayadi, ya'ni eritmaning pH ni ortadi. Indikator esa kislota to'liq neytralanib $pH = 7$ bo'lganida xam rangsiz bo'lib qolaveradi. Fenolftalein nng pushti rangi pH qiymati 8,0 ga etgandagina paydo bo'ladi. Ishqordan yana qo'shilganda eritmaning rangi $pH = 10,0$ gacha to'klashib boradi. shundan so'ng indikator rangi qancha ishqor qo'shilishidan qat'iy nazar

o'zgarmaydi. Shunday qilib, fenolftaleining rangi $\text{pH} = 8,0$ dan $10,0$ gacha bo'lgan oraliqda o'zgaradi.

Metiloranj uchun rang o'zgarish intervali $\text{pH} = 3,1$ dan $4,4$ oralikda bo'ladi. Shu oraliqda uning rangi pushtidan asta sekin sariqqa aylanadi. Ko'p indikatorlar neytral nuqtada, ya'ni $\text{pH} = 7,0$ bo'lganda emas, balki kuchsiz kislotali yoki kuchsiz ishqoriy muxitda o'z rangini o'zgartiradi. Shuning uchun bitta eritmaning o'zini titrlashda turli indikatorlardan foydalanilganda xar xil natijalarga erishiladi. Masalan, kislota eritmasini ishqor eritmasi bilan titrlashni $\text{pH} = 7$ bo'lganda tuxtatish, kerak. Titrlash paytida kislotali muxitda o'z rangini o'zgartiradigan indikatorendan foydalanilsa, kislota to'liq neytrallashtirish uchun zarur miqdordagi ishqor quyib ulgurmasdan indikator o'z rangini o'zgartiradi, ya'ni titrlash to'xtatiladi. Aksincha, ushbu titrlash paytida ishqoriy muxitda o'z rangini o'zgartiradigan indikatorendan foydalanilsa ishqor zaruriy miqdoridan sal ko'proq quyilgandan so'ng indikator o'z rangini o'zgartiradi. Ikkala xolda xam analiz natijasida bir oz xatolik mavjud bo'ladi.

2- jadvalda ko'rinib turibdiki, faqat neytral qizil, deyarli neytral muxitda ($\text{pH} = 6,8$ dan $8,0$ gacha intervalda) o'z rangini o'zgartiradi. Qolganlari yo kislotali yoki ishqoriy muxitda rangini o'zgartiradi. Titrlashda ishchi eritmadan titrlanayotgan eritmaga indikator rangining o'zgarishi aniq ko'ringunicha quyiladi. Bazi bir indikatorlarga mos keluvchi ranglar.

3- Jadval.

Indikator nomi	Molekulasiga xos	Ioniga xos rang
Fenolftalein	Rangsiz	Olcha rang
Timolftalein	Rangsiz	KO'K
Metiloranj	Qizil	Sariq
Metil – qizil	Qizil	Sariq
Lakmus	Qizil	Ko'k

MUSTAXKAMLASH VA NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Xajmiy analizning asosiy prinsiplari nimadan iborat?
2. Eritmaning normalligi va titri nima?
3. H_3PO_4 ning $0,5n$ eritmasi berilgan. Uning titri topilsin.
4. NaOH eritmasining titri $0,012 \text{ g/ml}$ ga teng bo'lsa, bu eritmaning normalligi topilsin.
5. Neytrallashtirish metodining mohiyati nimadan iborat?
6. Indikatorning o'zgarish intervali nimadan iborat?

7. 0,11n NaOH eritmasining 20 ml ni titrlash uchun 0,09n H₂SO₄ eritmasidan necha ml kerak bo'ladi.?

8. Xlorid kislotaning ishchi eritmasini qanday tayyorlash mumkin.?

9. Neytrallash metodida ishlatiladigan eng muxim indikatorlarni ayting.

10. Titrlangan eritma deb qanday eritmalarga aytiladi?

7- mavzu.

MAVZU: OKSIDLANISH - QAYTARILISH REAKSIYALARIGA ASOSLANGAN TITRIMETRIK ANALIZ METODLARI.

Reja:

1. Oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarining o'ziga xosligi.
2. Permanganometriya metodi.
3. Permanganometriyaning qo'llanilishi.
4. Yodometriya metodi.
5. Xromotometriya metodi.
6. Mustaxkamlash va nazorat uchun savollar.

Tayanch iboralar.


Permanganometriya, titrlangan eritmalar, yodometriya, xromotometriya, permanganat, indikatorlar, kraxmal.

Muammoli savol:

1. Oksidlanish - qaytarilish reaksiyalari bilan almashinish reaksiyalari orasida qanday farq bor?
2. Permanganometriya qanday eritma moddalar aniqlovchi bo'lib xizmat qiladi?
3. Natriy tiosulfat eritmasining titrini kaliy dixromat bilan aniqlash qanday reaksiyaga asoslanadi?


1. Oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarining o'ziga xosligi.

Oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarining o'ziga xos xususiyati reaksiyaga kirishuvchi zarrachalar orasida elektronlarning bir - biriga o'tishidir. Zarracha elektron qabul qilsa, oksidlovchi va elektron bersa qaytaruvchi deb ataladi. Masalan, ushbu reaksiya




da elektronlar Fe^{2+} dan Se^{4+} ga o'tadi, natijada seriy ionining oksidlanish darajasi (va musbat zaryad) kamayadi, temir ionning zaryadi ortadi. Ayni xolda seriy ion oksidlovchi, Fe^{2+} ioni esa qaytaruvchi bo'ladi. Shunday qilib, bir moddani oksidlanish jarayoni boshqasini qaytarilishi bilan uzluksiz bog'liq ekan, Shuning uchun bunday ko'rinishdagi reaksiyalarni oksidlanish - qaytarilish deb ataladi.

